This article discusses the concept of "Enlightened Generation" and ways of educating an enlightened generation, as well as the fact that the concept of "Enlightened Generation" reflects the community of the generation of a given era with its concentration on the essence of this concept which plays an important role in the systematic implementation of changes in society, and this will be analyzed from a socio-philosophical point of view.The article also shows five characteristics of the famous philosopher, scientist, academician S. Shermuhammedov, aimed at finding solutions to the problems of education and upbringing of the enlightened generation. At the same time, the opinions of Yusuf Khos Hajib and Abdullah Avloni about the "Enlightened Generation" will be covered in details.

Kalit so'zlar: *ma'rifatli avlod, ilm-fan, din, tasavvuf, ilmiy va diniy qadriyatlar, fuqarolik jamiyati, inson falsafasi, ma'rifat, ta'lim-tarbiya, intellektual salohiyat.*

Ключевые слова: *просвещенное поколение, наука, религия, мистика, научные и религиозные ценности, гражданское общество, философия человека, просвещение, образование, интеллектуальный потенциал.*

Key words: *enlightened generation, science, religion, mysticism, scientific and religious values, civil society, human philosophy, enlightenment, education, intellectual potential.*

KIRISH

Mamlakatimiz keyingi rivojlanish yillarining yana bir tarixiy ahamiyati shu bo'ldiki, ma'naviy meros tubdan qayta tiklandi va idrok etila boshlandi, ko'hna ilmiy, diniy, tasavvufiy manbalar qatlaridagi komillikka eltuvchi, ma'rifatli barkamollikni da'vat etuvchi g'oyalar, fikrlar o'rganilib, ularni bugungi kunlarimiz ehtiyojlari nuqtai nazaridan tadqiq etishga kirishildi. Ana shu chuqur tarixiy, milliy-ma'naviy, umuminsoniy negizlardan kelib chiqib, "Erkin fuqarolik jamiyatni ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalar, hayotiy e'tiqodi bo'lgan insonlargina bunyod eta olishi, shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom va ma'rifatli avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazish ishiga muhim ahamiyat berilayotgani asoslab berildi, ya'ni miliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari qatorida komil inson g'oyasi alohida o'rin tutishi belgilab berildi"[2,56-57]. Shu sababli ham o'sib kelayotgan yoshlarni komil inson darajasida tarbiyalash, ma'rifatli avlod bo'lib shakllanishlarida o'z xissalarini qo'shish jamiyat a'zolarining asosiy

vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifa yuksak ilm-fan, ma'naviyat va ilg'or tafakkur egalari sifatida dunyoni hayratga solib kelgan buyuk ajdodlarimizni bosh mavzui bo'lib kelgan.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Inson tafakkurining quvvati va kengligi avvalo muallim tarbiyasiga bog'liq" -degan so'zlarini qadrlash orqali jamiyatda ma'rifatparvarlik muhitini yaratish mumkin. Aslida, ilm-ma'rifatga e'tibor berish va yosh avlodni bilimli qilib tarbiyalash mustaqillikning dastlabki yillaridayoq boshlangan edi. Dastlabki yillarda talaba-yoshlarni bilimini yanada oshirish va mamlakat taraqqiyotiga ularning egallagan bilim va ko'nikmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatish maqsadida "Umid" jamg'armasi orqali horijiy davlatlarga o'qishga yuborish an'anasi yo'lga qo'yildi. Ko'plab yoshlarimiz Yevropa davlatlariga, Turkiyaga va Amerika Qo'shma Shtatlariga o'qishga yuborildi. O'zbekistonda "...o'z xaq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondasha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi istiqlol yillarida hal qiluvchi masalaga aylandi"[3,77].

TAHLIL VA METODLAR

Akademik Said Shermuhammedovning inson falsafasining asosiy xususiyatlari to'g'risidagi fikr mulohazalari fikrimizcha, ma'rifatli avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish muammolarini yechimini topishga xizmat qiladi. Muallif o'z fikrlarini yaxlit falsafiy hamda milliy g'oya sifatida talqin etadi. Biz ularni to'la-to'kis keltirish va tahlil etishni zarur deb topdik.

Birinchi xususiyat. Falsafa, bu – Inson falsafasi deb hisobga olganimizda biz borliqni tadqiq qilishning ahamiyatini aslo kamsitmaymiz. Chunki Inson uning (borliqning A.Q.) bir qismi hisoblanadi, aynan ana shu qism tufayli voqelik, yaxlitlik sifatida, Inson mavjudligining sharti hamda turli-tuman faoliyat va rivoji maydoni sifatida namoyon bo'ladi. ushbu fikrdan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki ma'rifatli avlod ham shu borliqda tug'iladi, voyaga yetadi va shakllanadi. Faylasuflar ta'kidlaganidek, jamiyatda yashab turib, jamiyatdan tashqarida bo'lishi mumkin emas.

Ikkinchi xususiyat. Falsafa, bu – Inson falsafasi. Chunki Inson tabiiy, ijtimoiy, ma'naviy muhitda yashaydi, u bilan har tomonlama aloqada bo'ladi. o'zi esa borliq holatiga nisbatan mohiyatini his etishi mumkin va zarur bo'lgan tabiiy (biologik-ekologik – A.Q.), ijtimoiy va ma'naviy yagona mavjudot hisoblanadi. Bu o'rinda, bizningcha, insonning bioijtimoiy mohiyati nazarda tutilmoqda.

Uchinchi xususiyat. Falsafa, Insonning tarixiy, ijtimoiy, etnik, madaniy va o'ziga xos aniq shaxsiy sifat hamda xususiyatlarini obyektiv va subyektiv tarzda determinlashgan (sababiy bog'langan – A.Q.), tabiiy, ijtimoiy, ma'naviy mavjudot sifatida uning xilma-xil sharoiti hamda ma'naviy mavjudotligini aks ettirib, hisobga olgan taqdirdagina u Insonni yaxlitligicha anglashi mumkin. Demak, Inson birinchi navbatda o'zining ijtimoiy mohiyati bilan ajrab turadi.

To'rtinchi xususiyat. Inson va borliqni falsafiy bilishning yaxlitligi uning milliy o'ziga xosligini ifodalashni aslo mustasno qilmaydi. Balki ularning ta'sirini tarixiy ijtimoiy-madaniy, ma'naviy, makon va zamon nuqtai nazardan haqqoniylik bilan o'zida aks ettiradi. Ushbu masala falsafaning umumiylik va alohidalik kategoriyasi negizida o'z yechimini topgan.

Beshinchi xususiyat. Millat va xalqning orzu-umidlari, o'z mavjudotligi sharoitga, tabiatga, jamiyatga, boshqa millatlarga bog'liq (uning yaxlitligicha) munosabatiga oqilona qarash doirasida tarixning hamma davrlarida ham milliy g'oyaning bevosita ruhiy jo'shqinligi emprik asosini tashkil etib kelgan. Tarixning keskin o'zgarishlar yuz berayotgan vaqtlarida, tarixiy, iqtisodiy, siysiy ijtimoiy-madaniy jihatlarini oqilona anglash nuqtai nazaridan o'z yo'lini to'g'ri tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan milliy g'oyani (milliy mustaqillik mafkurasini hayotga tadbiq etgan holda) nazariy jihatdan anglash va ijtimoiy-tarixiy amaliyot bilan tasdiqlash millat, xalq va jamiyatni tiklashning taktika va srategiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Tarixning burilish pallarida tabiiy-ijtimoiy voqelik mohiyatini anglash va unga oqilona yondoshish obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Ma'rifatli avlodni g'oyaviy-mafkuraviy yetukligi, ma'naviy jasorati aynan ana shu tarixning burilish pallalarida namoyon bo'ladi.

NATIJALAR

"Ma'rifatli avlod" tushunchasi o'zining mohiyat e'tibori bilan ushbu davr avlodiga xos umumiylikni aks ettiradi. Bu umumiylik esa, birinchi galda, mazkur avlodning mustaqillikni mustaxkamlashdagi ijodiy izlanishi bilan xarakterlanadi. Ayni vaqtda, mazkur tushuncha barkamol inson deb, nomlanuvchi davr kishilarining eng muhim belgilarini, ular tabiatini belgilaydigan

jihatlarini, ularning qiziqish va intilishlari bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarini, turmush tarzini, mafkuraviy umumiylikni ham ifodalaydi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash kerakki, bir jihatdan ma’rifatli avlod tushunchasining mazmuni shu avlodda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-ma’naviy sifat o‘zgarishlari tashkil qilsa, ayni vaqtda, mazkur tushuncha jamiyatdagi o‘zgarishlarning sistemali amalga oshishida, uni bilishda muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan ma’rifatli avlod tabiiy-ijtimoiy borliq bilan garmoniya qonuniyatlariga muvofiq ratsional, anglangan munosabatda bo‘ladigan insondir. Shuningdek, ijtimoiy ideal nuqtai nazaridan ma’rifatli avlod bilan olam o‘rtasidagi garmonik uyg‘unlik o‘zining qonuniyatlariga itoat etib, faoliyatida ularga amal qilib, ijtimoiy-ma’naviy hayotda gamonik rivojlanishni barqaror qadriyatga aylantirib, o‘zi ham ushbu uyg‘unlikdan zavlanib, bahra va ilhom olib yashaydigan insondir.

“Ma’rifatli avlod” tushunchasi o‘zining mohiyat e’tibori bilan o‘zbek xalqi tarixida alohida faxr va iftixor bilan qo‘llanadigan, baholanadigan va qadrlanadigan avloddir. U o‘z yelkasiga jamiyatni tubdan qayta qurish, yangi mafkuraviy makonni vujudga keltirish, o‘zbek millatini va davlatni jaxon hamjamiyatiga tanitish vazifalarini oladi.

“Ma’rifatli avlod” tushunchasi davr kishiga xos bo‘lgan umumiylikni aks ettiradi. Bu umumiylik esa, birinchi galda shu davr kishisining mamlakatini mustaxkamlash uchun olib borayotgan ijodiy izlanishlari bilan xarakterlanadi. Ayni vaqtda, mazkur tushuncha ma’rifatli avlod deb nomlanuvchi davr kishilarining eng muhim belgilarini, ular tabiatini belgilaydigan jihatlarini, shuningdek, ularning qiziqish va intilishlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarini, turmush tarzini, mafkuraviy umumiyliklarini ham ifodalaydi. Ma’rifatli avlod mamlakat kelajagi, jamiyat tayanchi va uning ajralmas qismi, davlat va jamiyatning noyob hamda tengsiz intelletual boyligidir.

MUHOKAMA

“Ma’rifatli avlod” tushunchasi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida markaziy g‘oya sifatida talqin etiladi. Mutafakkir “Ma’rifatli avlod” haqida gapirar ekan, kamolotning qator belgilarini ko‘rsatib o‘tadi. Ularning eng asosiysi sifatida esa alohida shaxsning o‘z manfaatlari, shaxsiy istaklari doirasini yorib chiqib, boshqalar g‘ami bilan ham yashashi, ko‘pchilik manfaati uchun fidoyi bo‘la bilishidir[4,21-22], - deb ta’kidlaydi.

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida ma’rifatli avlodni tarbiyalash uchun birinchi navbatda umumiy o‘rta ta’lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish, farzandlarimizni har tamonlama kamol topishi uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz lozim. Chunki jamiyatda ilmni qadrlash va ilmiy qadriyatlarni ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rnini ko‘rsatib berish uchun ham ta’lim tizimida erkinlik va raqobat muhitini ta’minlanishiga erishish katta ahamiyatga ega.

Ma’naviy-axloqiy va aksiologik qadriyatlar ma’rifatli avlodni tarbiyalashda muhim omillar deb ko‘rsatilsa-da, bu bilan cheklanib qolmaslik zarur. Chunki, ma’rifatli avlodni tarbiyalash jamiyat taraqqiyotida ularning har tomonlama ishtirokini ta’minlash bilan namoyon bo‘ladi. Jamiyat a’zolarini ilm-ma’rifatli qilib tarbiyalashda ijtimoiy muhit xolati muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ma’rifatli avlodni tarbiyalashda lozim bo‘lgan ma’naviy-axloqiy va aksiologik qadriyatlarning asosiy tarkibini belgilab olish kerak. Shuningdek, belgilab olingan qadriyatlarni inson ongiga singdirishning qulay va zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish esa hamon dolzarb bo‘lib turibdi. “Bizning nazarimizda yoshlarni barkamol bo‘lib shakllanishlarida lozim bo‘lgan ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarning asosiy tarkibini belgilab olishimiz kerak”[5,119].

Islom ta’limotida ma’rifatli avlodni shakllantirish muammosi bosh maqsad darajasiga ko‘tirilgan bo‘lib, kishini ruhiy va ma’naviy jihatdan poklash orqali barkamol, komil insonni tarbiyalash masalasi turadi. Shunisi e’tiborliki, tasavvuf diniy falsafiy dunyoqarash bo‘lib, uning asosiy mazmuni insonni komillik tomon yektaklashdir. Bu ta’limot vakillari shaxsiy ruhiy tajriba orqali Olloh bilan ruhiy muloqotda bo‘lish (Ollohga yetishish va unga singib ketish) mumkin deb hisoblaydilar. Bunga dilida Ollohga muhabbati, ilohiy yo‘lda boradigan kishi jazba (zikr) va tajalli vositasida erishadi. Ollohning marhamati faqat payg‘amparlarga va imom-avliyolargagina emas, hammaga barobardir. Komil inson botiniy ruhi bilan Ollohni anglaydi va qalbiga singdiradi[6,27].

Ma’rifatli avlodni shakllanishida diniy muassasalarning ahamiyati islom dinini vujudga kelishining sarchashmalaridayoq beqiyos bo‘lganligi va muqaddas dinimizni asosiy tayanchi bo‘lganligini barcha islomshunos tadqiqotchilar ta’kidlaydilar. Bu mavzu o‘zining g‘oyat keng, ko‘p qirrali va uzoq tarixiy zaminlarga ega ekanligi bilan alohida va fundamental izlanishlarni talab qiladi. Ushbu ishda, ma’lum manbaa va tarixiy adabiyotlarga tayangan holda mavzuning islom diniy muassasalarining barkamol inson tarbiyasidagi o‘rni va roli, insonni barkamollik martabasiga ko‘tarilishidagi diniy tashkilotlar erishgan tajriba va ularni ta’lim tarbiyadagi ahamiyati muxtasar

ko‘rib chiqiladi. Shuni qayd etish lozimki, diniy-islomiy tashkilotlar ko‘lami va tarkibi juda keng. Ular faoliyatining negizida shubhasiz, inson uni islom dini, Qur’oni Karim, shariat, hadislar asosida ma’rifatli avlodni tarbiyalash vazifasi turadi.

Jamiyatning ma’naviy taraqqiyot bosqichida ilm va ma’rifatning o‘rni muhim ahamiyatga ega. Ilmu ma’rifat, ta’lim-tarbiya jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan eng qudratli omillardandir. Ta’lim – nazariy himmat ezgulikka o‘rgatsa, tarbiya – ezgu axloqiy sifatlarga o‘rgatadi. Yuksak axloqiy fazilatlar inson hatti-harakatida namoyon bo‘luvchi bilimdonlik, donolik va ko‘pchilik maqsadlarni o‘z shaxsiy maqsadlaridan yuqori qo‘yish, harakatga, muhabbatga, yuksaklikka intilish, adolatni sevishdir. “Aqlli kishi deb shunday kishiga aytiladiki, unda o‘tkir zehn-idrok bo‘lishi bilan birga, fazilati ham bo‘lsin.... Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zaruriy narsalarni kashf etishda zo‘r iste’dodga egalar”[7,182].

XULOSA

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida ilmiy va diniy qadriyatlar transformatsiyasi orqali ma’rifatli avlodni tarbiyalash jamiyatda tinchlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini yaratishdir. Bu borada davlatimiz rahbarining o‘z yo‘li va yakdil qarashi mavjudligini ta’kidlash joiz. “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an’analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e’tibor qaratiladi”[1,54]. Jamiyat a’zolarida ilm va dinni qadrlash va ularga hurmat ko‘rsatish, ilm va din uyg‘unligini yaratish orqali diniy konfessiyalar o‘rtasida hamjihatlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda jamiyatimizning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ma’rifatli avlodni tarbiyalashning asosi bo‘lgan ta’lim-tarbiya sohasi muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, ta’lim-tarbiya tizimini isloh etish va modernizatsiya qilish ma’rifatli avlodni tarbiyalashdagi o‘rni va rolini oshirishda muhim bosqichdir.

ADABIYOT RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ. 2019. 3-том. –Б. 54.
2. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент: Ўзбекистон. 2001. –Б. 56-57
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият. 2008. –Б. 77.
4. Каримов К. Илк бадиий достон. –Тошкент: Ўқитувчи. 1976. –Б. 21-22
5. Қамбаров А. А., Нажметдинова М.М. Ёшларнинг баркамол бўлиб шаклланишларида ижтимоий сиёсат. ҚарДу хабарлари. Илмий-назарий, услубий журнал. 2022. 4/2(54)
6. Пўлатов Х., Маматов М. Тасаввуф тарихидан лавҳалар. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2011. –Б. 27
7. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги мерос нашриёти. 1993. Янги аср нашриёти. 2018. –Б. 182.

FALSAFA

UDK: 124.2 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a28

O‘RTA ASRLAR O‘ZBEKISTON MAQBARALARIDA TUG‘LARNING ISLOM VA TANGRICHILIKDAGI MUQADDAS TIMSOLIY VAZIFALARI

ИСЛАМО-ТЕНГРИАНСКИЙ СИМВОЛИЗМ И САКРАЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ ТУГОВ НА ПРИМЕРЕ ЗАХОРОНЕНИЙ СРЕДНЕВЕКОВОГО УЗБЕКИСТАНА

ISLAMIC-TENGRIAN SYMBOLISM AND THE SACRED FUNCTIONS OF THE TUGS ON THE EXAMPLE OF BURNINGS IN MEDIEVAL UZBEKISTAN

Gafforova Dilbar Xasanovna[1] Rizayev Ilxom Imomaliyevich[2]

[1]**Гаффорова ДилбарХасановна** – свободный соискатель
[2]**Ризаев Ильхом Имомалиевич** – Самаркандский филиал Ташкентского университета информационных технологий доктор философии (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston musulmonlari uchun ziyoratgohga aylangan qabr va maqbaralarni ulug‘lash amaliyoti haqida so‘z boradi. Mualliflar peshvolar qabrida ot dumli tug‘lar borligi haqida tarixiy dalillar keltiradi va ularning ramziy ma’nosini tushuntiradi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar, shuningdek, tug‘larning tarixiy va funksional ahamiyati to‘g‘risida turli mualliflarning nuqtainazarlari tavsiflanadi.

Аннотация

В данной статье обсуждается практика почитания могил и мавзолеев, которые стали особыми культовыми объектами для мусульман Узбекистана. Авторы также приводит исторические свидетельства о присутствии тугов с конскими хвостами на могилах духовных лидеров и объясняет их символическое значение. Исследования, проведенные в этой области, описываются, а также представлены точки зрения различных авторов на историческое и функциональное значение этих тугов.

Abstract

This article discusses the practice of venerating graves and mausoleums, which have become special places of worship for Muslims in Uzbekistan. The authors also cite historical evidence of the presence of tugs with horse tails on the graves of spiritual leaders and explain their symbolic meaning. The research conducted in this area is described, as well as the points of view of various authors on the historical and functional significance of these tugs are presented.

Kalit so‘zlar: *ramz, ziyorat, tug‘ - qabrlardagiustun, so‘fiylik, shomanlik, turkiyxalqlardaotgae‘tiqod, hayotdaraxti, toyelgimarosimi.*

Ключевые слова: *символ, зиярат, туг – шест у могил, суфизм, шаманизм, культ коня у тюркских народов, дерево жизни, обряд тойэлги*

Key words: *symbol, ziyarat, tug – pole at the graves, Sufism, shamanism, horse cult among the Turkic peoples, tree of life, toyelgi rite.*

ВВЕДЕНИЕ

Ислам уже много веков является основной религией Средней Азии. Именно среднеазиатские города дали исламскому миру знатоков Корана, хадисов и шариата, ученных теологов. Имена, Исмаил аль-Бухари (IX в.), Абу Мансур аль-Матуриди [1,121-132] (IX-X в.), Хаким ат-Термизи [2,25-35] (IX-X в.), Бахауддин Накшбанди [3,69] (XIV в.), Махдуми Аъзам Дахбеди [4,36] (XV-XVI в.) являются очень известными и уважаемыми далеко за пределами современного Узбекистана, земля которого дала этих и много других мыслителей, богословов. Почитание могил (зиярат) вышеуказанных улемов, шайхов а так же могилы легендарные святых (авлия), например Мавзолей Ходжа Даниера (пророка Даниила), является своеобразным культом у мусульман Узбекистана. Могилы на протяжении веков приобрели вид архитектурного комплекса – Макбара, часто воздвигнутое правителями в знак почёта и поклонения. Средневековые мавзолеи Узбекистана являются местами массового посещения паломников, неотъемлемой частью духовной жизни населения.

Если посмотреть фотографии, сделанные в конце XIX в начале XX веков, то можно видеть многочисленные высокие шесты с пучком конского хвоста у изголовья могил почитаемых духовных лидеров.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ

Швейцарский путешественник, дипломат и ученый Анри Мозер, посетивший во второй половине 19 века Самарканд, Бухару и другие города Средней Азии, в своих мемуарах так же упоминает о наличии *туга* в комплексе Шахи-Зинда (Самарканд) у могилы Кусама ибн Аббаса:

"Am Grabe selbst sieht man nur den Sarkophag; welcher von den reichsten Stoffen, Geschenken ehemaliger Pilger, bedeckt ist; ferner die grüne Fahne und den "Tug" (Rossschweif) des Propheten" [5,69] (На самой могиле можно увидеть только саркофаг; который покрыт самыми богатыми тканями, подарками от бывших паломников; также зеленый флаг и «Туг» (конский хвост) Пророков. – перевод Г.Д.).

Далее подобные шесты он видит на кладбище при въезде в город Бухару. Внимательный и очень наблюдательный Анри Мозер осведомившись у местного населения, дает следующую информацию:

"Hier und da bemerkt man ein Mausoleum mit einer Stange, an deren Spitz der Schweif eines Yack oder eines Pferdes befestigt ist, zum Zeichen, dass hier ein Grosser, z. B. ein Scheik oder Ulema, im Grabe ruht; überdies werden diese Gräber mit Argali- oder Yackhörnern, den Sinnbildern der Kraft und des Muthes, geschmückt" [5,234] (Здесь и там можно заметить мавзолей с шестом, к вершине которого прикреплен хвост яка или лошади, в знак того, что в могиле покоится кто то великий, например, шейх или улема; Кроме того, эти могилы украшены рогами архара или яка, символами силы и мужества – перевод Д.Г.).

Истинное предназначение этих шестов не описываются в исторических источниках средневековья, в современных этнографических исследованиях данные так же скудны. Значимую и первую работу по изучению проблематики провел Терлецкий Н.С., который, считает степень изучения темы далеко от удовлетворительной. Среди исследований, в той или иной мере затрагивающих эту тематику, следует отметить несколько работ Г.П. Снесарева, В.Н. Басилова, О.А. Сухаревой, А.Л. Троицкой, Л.А. Чвырь и других авторов [6].

Терлецкий Н.С. в своих исследованиях дает подробное описание термина туг, его функции в военно-политической жизни тюркского мира, например, у Османских правителей, автор также отмечает функцию туга как маркера, то есть как указатель места погребения. Согласно Терлецкому внедрение знамени со стягом и навершием в культ мусульманских праведников и традицию совершения паломничеств, относится к XIV в [6].

В беседе со служащим мавзолея Ходжа Даниер, Одилом Шокировым, который уже 40 лет заботится о мавзолее он дал нам следующие данные «Вот уже три поколения мы заботимся и ухаживаем за этим местом поклонения (зияратгох), насколько мне известно до построения мавзолея (макбара) над могилой тут было 6 шестов – тугов. Они являются знаком зияратгоха, обычай, оставшийся от монголов. Туги в наибольшем количестве находятся в Бухаре и Карши, он означал что захороненный человек обладал уважением и большой властью при жизни. До реставрационных работ в мавзолее Гур Эмир, у могилы Мирсаид Барака были четыре туга. Сейчас и у могилы Сайид Умара остался один туг.» научный сотрудник мавзолея Гури Эмир Мадина Халимова дала нам несколько иную информацию: «Туги устанавливались на могилы святых, а также на почитаемые святыни. Они имеются по всей Центральной Азии. Помимо конского волоса использовали так же шерсть яка. В Самарканде шесты в основном сделаны из прочной древесины вяз (кайрагач), они должны быть высокими и видными издалека, что бы дальние путники могли остановится и отдать дань уважения авлия» [7].



Рисунок II (Вид на мавзолей Ходжа Даниер на данный момент)

Туг обычно венчается навершием (*тадж-и туг*) разнообразной конфигурации, хотя наиболее распространенными являются изображения нераскрывшегося бутона. *Тадж-и туг* обычно выковывался или отливался из металла. Сам шест может быть изготовлен в виде цельной деревянной жерди либо же быть составным и представлять собой несколько звеньев, скрепляемых друг с другом. Под навершием обычно установлена горизонтальная перекладина небольшой длины, к которой крепятся, пучки конского волоса (или конский хвост), иногда кусок материи, часто треугольной формы (в основном красного или белого цвета) и колокольчики.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

И все же предназначение, и происхождение шестов у средневековых могил шейхов, авлия, суфиев и др. почитаемых в народе мест остается вопросом открытым и малоизученным.

В современное время число тугов уменьшилось, у некоторых захоронений вовсе отсутствуют. Этот процесс можно наглядно увидеть по фотографиям Мавзолея Ходжа Даниер (Рис. I и II) или мечети Харати Хизр в Самарканде.



Рисунок I. *(Вид на могилу Ходжа* Даниер *конец XIX века из электронного каталога Всемирного Музея Вены)*

Полагаем что шесты стали убывать во время реконструкций архитектурных памятников во время советской власти. Другая причина негативное влияние погоды, например, в следствии сильных ветров, но из-за отсутствия знаний конкретного предназначения шестов необходимости возводить их заново не было. По канонам шариата и ислама воздвигание таких шестов не упоминается. Изучение религиозных источников на тему захоронений полностью исключает исламское происхождение шестов [8,24].

В первую очередь рассмотрим термин *туг*, которым называют шест у могил в Узбекистане. Согласно узбекской национальной онлайн энциклопедии qomus.info, «Туг – с древних времен является символом правления, министерства, княжества и т. д. в восточных странах. Туг был сделан из бычьего или конского хвоста. Во многих азиатских странах (Китай, Индия) был сделан из хвоста яка или тибетского быка, тогда как тюрки делали его в основном из лошадиных хвостов. Термин «туг» впервые появляется в мемуарах Шинеусу, написанных в честь уйгурского хана (середина 8-го века). В 1202 году Чингисхан объявляет о создании государства, воткнув 8 тугов на берегах реки Онон. Даже после принятии ислама туг продолжал использоваться в тюркских государствах сельджуков, мамлюков, караханидов, османов, также присутствовал в период тимуридов. Наряду с чинами *бахадур* и *туманбеги*, почетными званиями являлись *тугдовул, тумантуг* и *чартуг*» [9].

Туг являлся военно-политическим знаменем у многих тюркских народов. Например, у казахов каждый род имел свое большое знамя, и каждое отделение свой значок, которые тщательно сохранялись в мирное время и вывозились только на войну [10, 89-102]. О военно-политическом характере туга говорят такие титулы как, *туглук* — «обладатель знамени», *туксаба* — «начальник войскового подразделения, имеющего свое знамя».

Безусловно появление шеста с конским хвостом у могил мусульман, является следствием религиозного синкретизма, влияние местных культов и ритуалов на ислам. Синкретизм объединяет разнородные убеждения, как правило, некритически. Термин был впервые использован Плутархом для слияния религиозных культов, которое было распространено в древнем мире - как в гностицизме и герметической литературе. Теософия иллюстрирует ту же тенденцию в наше время, хотя, вероятно, она встречается везде, где есть связь между различными религиями [11].

Малов С.Е. описывая шаманский обряд в начале XX века упоминает, туг как скрученную веревку, которая натягивалась при камланиях вертикально в центре помещений, будучи привязана к балке дымового отверстия и украшена полотнищами красной, белой и зеленой материи. Значение туга, как символа связи шамана с «верхним миром», видно и в исламизированном объяснении этого явления: «такая веревка в первый раз была спущена с неба на землю архангелом Гавриилом по приказанию бога во времена Мухаммеда» [12,52]. Явление туга в шаманизме, а также у могил суфиев подтверждают мысли Сухаревой О.А. и Снесарева Г.П. о шаманско-суфийских генетических связях [12,54]. В частности Сухарева О.А. упоминает гадалку из Бухары, которая при лечении болезни указывала на *мазар* (могила аулиё), где необходимо было принести жертву требуемую «духом святого» и возвести шест на который вешали лоскуток ткани [13,37].

Вертикальное положение туга у могилы, а также веревки-туга и ее функция связывание двух миров в камлании, напоминает нам символ «мирового дерева». Мировое дерево так же являлось связным звеном «верхнего и нижнего миров» в мифологии многих народов, как и *туг* шаманов. Этот очень древний символ встречается во многих культурах и мифологии разных народов. У тюркских народов, в тенгрианстве, «мировое дерево», оно же «дерево жизни», имеет особое положение у казахов оно называется «Байтерек», у казанских татаров «умр очун», у качинцев «бай кайен» (священная береза) [15,81]. Символ мирового дерева часто встречается в прикладном искусстве народов Средней Азии. Например, в орнаментах сюзане, ковров, чеканке и резьбе. Примечателен медный поднос из Бухары с чеканкой двух лошадей у дерева (Рис.III) [16,119].



Рисунок III

Преобладание термина *туг* в тюркской культуре, а также наличие пучка из конского волоса, животного глубоко почитаемого у тюркских народов, дает нам основу полегать что традиции туга уходят корнями в тенгрианство.

Лошадь была главным богатством кочевников, они передвигались на ней по просторам степей, употребляли ее молоко и мясо, одевались в шкуры, продавали лошадей или обменивали на другие важные товары. Лошадь была основным залогом успеха военных достижений тюркского воина. Значительную роль лошади и скотоводства у тюркских народов подтверждают рунические надписи, китайские (Синь Таншу) и арабские письменные источники («Послание Фатху б. Хакану о достоинствах тюрок и всех войск халифата» ал-Джахиза). А так же археологические материалы и данные петроглифов [13,40-41].

Особую духовную связью с лошадьми можно увидеть на примере древних обычай тюрков - захоронения лошадей с людьми. Считалось что лошадь послужит покойному в пути в иной мир, душа покойного на лошади добиралась верхнего мира за 40 дней, что возможно связано с поминальным обрядом «*кирк*» (поминание на сороковой день после смерти) современных узбеков.

Согласно сведениям Бичурина, похоронный обряд у тюрков в эпоху первого Тюркского каганата делился на три последовательные стадии, последняя из них включала вывешивание голов овец и лошадей, принесённых в жертву на вехах [13,71-72]. Другой обряд связывающий туг с тенгрианством является обряд *Тайэлги* (досл. вешание лошади), согласно которому шкуру принесённой в жертву лошади вешали на высокий шест [13,80].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Эти ритуалы тюрков раннего средневековья сохранились на протяжении много веков алтайцев, тувинцев, саха. На наш взгляд пережитки этих древних ритуалов на территории современного Узбекистана связаны с принятием ислама тюркских династий караханидов, сельджукидов, чингизидов и д.р.

Итак, исходя из вышеуказанных данных можно предположить, что шест олицетворяет «Дерево мира», а наличие на шесте пучка из конского волоса, является символом жертвенной лошади, на которой покойник совершал свой последний путь, очевидно, что практически все элементы туга, их символизм и сакральные функции относятся к доисламской эпохе, в основном тенгрианству. Они обрели новую смысловую нагрузку уже в процессе распространения мусульманской религии благодаря суфизму.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Charfi A., Namatov N.A., Turaev B.O. The rise of islam //International Journal of Intellectual Cultural Heritage. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 121-132.

2. Turaev B.O., Namatov N.A., Namatov M.A. Islamic achievements in science //International Journal of Intellectual Cultural Heritage. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 25-35.

3. Samatov X.U. Naqshbandiya tariqatida xalq bilan muloqot qilishning tasavvufiy-falsafiy asoslari //Ilmiy axborotnoma. – C. 69.
4. Тураев Б.О. Махдуми Аъзам-мутафаккир //Самарқанд: ИБХМ нашриёти. – 2013.
5. Moser, Henri „Durch Central-Asien“, Leipzig, 1888.
6. Терлецкий Н.С., Некоторые древние атрибуты мусульманских мест паломничества и поклонения (к вопросу о функциях и символизме туга. http://kunstkamera.ru/files/lib/978-5-884314-159-6/978-5-884314-159-6_05.pdf (доступ - 12.05.2020)
7. Салоҳиддин Муҳиддин, «Исломда ўлим ва жаноза масалалари». Тошкент, Мовароуннаҳр, 2000
8. https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tug-uz/ (доступ 04.05.2020)
9. Дмитриев С.В. Знамя в военно-политической культуре тюрко-монгольских кочевников. Журнал социологии и социальной антропологии. 2001. Том IV. № 4.
10. http://hirr.hartsem.edu/ency/Syncretism.htm (доступ 03.05.2020)
11. http://kunstkamera.ru/files/lib/978-5-884314-159-6/978-5-884314-159-6_05.pdf (доступ - 12.05.2020)
12. Снесарев Г. П. Реликты до мусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. Москва, 1969
13. Нестеров С.П. Конь в культах тюркоязычных племен Центральной Азии в эпоху средневековья. Новосибирск, 1990
14. Сухарева О.А. Ислам в Узбекистане. Ташкент, 1960
15. Безертинов Р.Н. Тенгрианство – религия тюрков и монголов. Казань, 2004
16. Хакимов А., Файзиева В., "Ўзбекистон Давлат Санъат Музейи ноёб хазинасидан". Ташкент, 2014
17. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф, «Сунний ақийдалар». Тошкент, Шарқ. 2011
18. Сафаров А. И., Ризаев И. И. Роль исторического сознания и исторической памяти в системе национального сознания //Культурное наследие и народное искусство: сохранение и актуализация в целях устойчивого развития общества. – 2022. – С. 297-303.
19. Усмонов Ф. Н. Основные этапы развития научной рациональности //Theoretical & Applied Science. – 2017. – №. 11. – С. 181-184.
20. Mardonov R. The role of social and humanitarian disciplines in the professional development of students //Conferencea. – 2021. – С. 17-21.

FALSAFA

UDK: 17, 2.01, 17.01.02 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a29

INSONLARNI QADRLASH VA UNI MA'NAVIY-AXLOQIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVATLASHDA DIN VA FALSAFANING O'RNI

РОЛЬ РЕЛИГИИ И ФИЛОСОФИИ В ЦЕННОСТИ ЛЮДЕЙ И ПОДДЕРЖКЕ ИХ С ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКОГО АСПЕКТА

THE ROLE OF RELIGION AND PHILOSOPHY IN APPRECIATING PEOPLE AND SUPPORTING THEM FROM THE SPIRITUAL AND ETHICAL ASPECT

Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich[1]

[1]**Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich** — O'zbekiston milliy universiteti doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada inson qadri va huquqlari umumbashariy, milliy davlat va huquq tushunchalarini o'zida mujassamlashtirishi hamda falsafani bilishdan maqsad olamni anglash, g'oyaviy, ruhiy barkamollikka erishish va oqilona yashash qonunlarini o'rganish ekanligi haqida bayon qilingan.

Аннотация

В этой статье говорится, что человеческое достоинство и права воплощают в себе концепции универсальности, национального государства и права и что цель изучения философии - познание мира, достижение идейного и духовного совершенства, изучение законов разумной жизни.

Abstract

This article states that human dignity and rights embody the concepts of universality, national state, and law, and that the purpose of learning philosophy is to understand the world, to achieve ideological and spiritual perfection, and to study the laws of rational living.

Kalit so'zlar: *Inson qadri, ma'naviy-huquqiy meros, inson huquqlari, barqaror taraqqiyot, ma'naviy yetuklik.*

Ключевые слова: *Человеческое достоинство, духовно-правовое наследие, права человека, устойчивое развитие, духовная зрелость.*

Key words: *Human dignity, spiritual and legal heritage, human rights, sustainable development, spiritual maturity.*

KIRISH

Falsafiy qarashlar va ta'limotlardan qaysi biriga e'tiqod qilish kerak degan masalani yechishda siz biron-bir fikrga, qarorga tabiatan moyilligingiz, dunyoqarashingiz tabiiy aql-idrokingiz, fahm-farosatingiz, zakovatingiz darajasida idrok etasiz va muayyan xulosaga kelasiz. Hammaning bir qarorga, xulosaga kelishi mumkin emas, chunki kishilarning tushunchasi har xil, turlicha. Agar buning aksi bo'lganda edi, unda tabiatning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunga putur yetgan hamda taraqqiyot sekinlashib, yemirila boshlagan bo'lur edi. Alloh taolo har bir insonga taqdir va qismat bilan birga iroda, inon ixtiyor va faoliyat erkinligini ham berib qo'ygan. Inson o'z ixtiyori bilan qilgan ishlariga, tanlagan yo'liga, yaxshi yoki yomon jihatlariga qarab hukm qilinadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Falsafani bilishdan maqsad olamni anglash, g'oyaviy, ruhiy barkamollikka erishish va oqilona yashash qonunlarini o'rganishdir.

Mashhur qadimgi yunon faylasufi Pifagordan so'ragan ekanlar: "Sen donishmanmisan?" U kamtarlik bilan: "Yo'q, men donishmand emasman. Men bor-yo'g'i donishmandlikni sevuvchi, ya'ni faylasufman", deb javob bergan ekan.

Buyuk donishmand Suqrotning fikricha, faylasuf aqli juda o'tkir, bilim doirasi nihoyatda keng va bilimlarini hayotiy tajribalarga bog'lay oladigan Xudo yarlaqagan kishidir.

Teran va har tomonlama fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan oliy ma'lumotli oqil kishi faylasuf, ya'ni falsafiy fikr sohibi deyish mumkin. Falsafa, ontologiya (Borliq haqida ma'lumot), gnoseologiya (Borliqni bilish nazariyasi), ruhiyatshunoslik (psixologiya), mantiq (logika), etika, estetika, sotsiologiya va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Olimlarimiz oldida kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb katta masala turibdi, u ham bo'lsa sovetlar davrida xalqimizga zo'rlik bilan tiqishtirilgan bir tomonlama ta'limot bo'lgan falsafani sotsializm va kommunizm sarqitidan tozalab, yangicha, "aynimagan" falsafani, jahon falsafasi tarixini, falsafiy ta'limni ommaga yetkazishdir.

FALSAFA

Falsafa boshqa fanlar singari umumbashariy fandir, unda turli mamlakatlardagi faylasuflarning, fozil kishilarning, donishmandlarning chuqur mashaqqatli aziyatli mehnatlari, izlanishlari tufayli falsafiy tushunchalar, dunyoqarashlar, mayllar tamoyillar vujudga kelgan. Shuning uchun uni butunlay yangilash emas, balki takomillashtirish kerak.

Falsafa endilikda nafaqat dunyoqarashni, balki u bilan bog‘liq holda iymon va e’tiqodni ham shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymog‘i lozim. Chunki iymon, etiqod jamiyatda ma’naviyatni qaror toptiradigan odamni haqiqiy insonga aylantirish uchun qudratli ruhiy vositadir.

Abu Nasr Forobiy Aristotelning noaniq jumlalarini qo‘llashga uch narsa sababchi deb ko‘rsatadi:

1. O‘quvchining falsafa ilmini o‘rganishga qobiliyatini sinab ko‘rish;

2 Falsafani barchaga tushunarli qilib emas, balki unga munosib odamlargagina tushunarli qilib berish uchun;

3. Fikrni qiyin masalalar bilan mashq qildirish uchun.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarbiya borasida u muallim shogirdga nisbatan o‘ta hokimlikka (qattiqqo‘llikka) ham bo‘shliqqa ham yo‘l qo‘ymasligi lozim, chunki o‘ta hokimlik shogirdda muallimga nisbatan nafrat uyg‘otadi, agar shogird muallimning bo‘shligini sezsa, unda muallimga va o‘qiyotgan ilmiga nisbatan sovish va mensimaslik paydo bo‘ladi, deb aytgan.

Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, bunga ilm va yaxshi, zagu axloq yordamida erishiladi, deb ta’lim beradi.

I. Karimov ta’biri bilan aytganda. “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”.

Sovetlar davrida, barcha sohalardagi kabi, falsafa fani ham “qizil imperiya” tashviqoti quroliga aylantirildi, falsafa faqat bir tomonlama aks ettirildi. Xalqqa oqni qora, qorani esa oq deb tushuntirildi. K.Marks, F.Engels hamda V.I.Lenin kabi o‘ta moddiyyunchilar, daxriylar (xudosizlar) dunyoqarashlariga, falsafiy ta’limotlariga to‘g‘ri kelmaydigan barcha mashhur faylasuflarning qarashlari va ta’limotlarini behayo parcha asossiz, noto‘g‘ri, xato, reaksion ta’limotlar deb e’lon qildilar va bunday mahdudlikni jamiyatga qisman bo‘lsa-da majburan singdirishga muvaffaq ham bo‘ldilar.

Ingliz faylasufi - Frensis Bekon xudosizlik haqida shunday degan: “Yuzaki faylasuflik inson aqlini xudosizlikka yetaklaydi. Falsafani chuqur o‘rganish esa inson idrokini dinga do‘naltiradi”.

Umuman, hayotda, ko‘z o‘ngimizda chegarasi yo‘q nima bor o‘zi? Hamma narsaning chegarasi bo‘lganidek, aqlimiz, ongimiz, tafakkurimiz ham chegaralidir. Aqlimiz yetadigan chegaradan u yog‘ini cheksizlik (olami cheksiz) deyiladi. Ammo bu atama shartli bo‘lib, aqlimiz borib yetadigan chegaraning u yog‘ini cheksizlik deb emas noma’lumlik (sir) deb atamoq joizdir. Chunki mantiqan “cheksizlik”, “noma’lumlik” bo‘lib chiqmaydimi axir?

Bu haqda Umar Xayyom deydi:

Biz kelib ketuvchi to‘garak jahon
Na boshi ma’lum na so‘ngi ayon.
Hech kimsa rostini aytib berolmas:
Biz qaydan keldig-u, keturmiz qayon?

Aytgan: o‘sha idealistlar aytgan birlamchi ruh, ongning o‘zi ham materiya deb. Xo‘sh, o‘sha materialistlar qaysi tajribaga asosan shunday deganlar? Bu isbotsiz nazariyada asos tugul, mantiq ham ko‘rinmaydi! Materiya materiyani, tabiat tabiatni yarata olmaydi, chunki olamni, dunyoni yaratguvchi fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Tabiatning bunday qobiliyatga ega emasligi bu nazariyani chippakka chiqaradi.

Materiya, tabiat fikrlovchi, yaratguvchi Alloh taolo belgilab qo‘ygan tartib, qonun-qoidalar bo‘yicha tug‘iladi, yashaydi, o‘sadi, rivojlanadi, yuksaladi, so‘ngra pasayadi, tanzulga yuz tutadi, o‘ladi, yo‘q bo‘lib, keyin yana tug‘iladi, paydo bo‘ladi va hokazo. Shunday doiraviy aylana bo‘ylab harakatlanaveradi. Bamisoli quyoshdan nur qanday ajralib chiqsa, Alloh taolodan ham moddiyat ana shunday ajralib chiqqan, deb haqiqatga birmuncha yaqin keladi buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino.

Moddiyunchilar esa fan faqat ko‘zga ko‘rinib turgan, aql kuchi yetadigan, tajriba orqali bilinadigan ishlarnigina yecha olishini tushunib yetmadilar. Butun Borliqni, majudotni, shu jumladan,

modda va ongni, ruhni yaratgan Alloh taoloning “Parvardigori olam” faslida aytib o‘tilgan sakkiz sifatini bilmaganliklari yoki jarlik bilan tan olmaganliklari bois bu masalada xato ketganlar.

Olamlar Parvardigorining mohiyatiga fan, falsafa yeta olmaydi, bunga faqat Alloh taolo O‘zi yorlaqagan, tanlangan insonlar: payg‘ambarlar va avliyolargagina bildirgan botiniy ilm ilmi-g‘ayb, laduniy ilm orqali yetishish, yetganda ham qisman yetishish (g‘ayb Alloh taolo tomonidan sir tutiladi) mumkinligi ma’lum bo‘ldi. Payg‘ambarlar va valiylar buyuk Alloh taoloni, haqiqatni muroqaba-avval mantiqiy muhokama qilmasdan hamda intuitsiya, haqiqatni bevosita payqash, aqldan ustun turadigan mistik bilish qobiliyati orqali payqaydilar. Bilishning bu turi payg‘ambarlar va avliyolarga xos bo‘lgan maxsus bilish usuli deb ham aytiladi.

Zohiriy ilm-fan bu borada ojizlik qiladi. Chunki fan, yuqorida aytganimizdek, faqat tajriba bilan bilinadigan ko‘rinib turgan konkret hodisalar, faktlarning ikkilamchi fizik sabablarini ochib beradi, xolos. Lekin u birlamchi, g‘ayriilmiy bo‘lgan taqdirlarni hal qiluvchi va sabablar sababchisining mohiyatiga yeta olmaydi. Zohiriy ilmga tabiatshunoslik, tibbiyot, falsafa, mantiq, matematika, fizika jo‘g‘rofiya, etika, estetika, ontologiya, gnoseologiya, sotsiologiya, ruhiyatshunoslik va shu kabi aniq hamda gumanitar fanlar kiradi. Bu fanlar ko‘rinib turgan tabiat, hodisalar, voqealar, jismlar haqida, ularning tabiati, xossasi to‘g‘risida tushuncha beradi. Lekin zohiriy ilmning bir o‘zi haqiqatni yechishga ojizlik qiladi. Zohiriy ilm, botiniy g‘ayb ilmi bilan birlashgandagina, chin, ya’ni biz izlagan haqiqat sirlari ochila boshlaydi.

Ma’naviyat va moddiy hayot uyg‘unligi masalasida, Yurtboshimiz quyidagicha to‘xtalib o‘tganlar: “Ma’naviyatning inson va jamiyat hayotdagi mohiyati va ahamiyati haqida fikr yuritganda, bu borada asrlar davomida qizgin bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelayotgan bir masalaga alohida to‘xtalib o‘tish lozim, deb o‘ylayman. Ya’ni, odamning kundalik hayoti va faoliyatida moddiy va ma’naviy asoslar bir-biriga nisbatan qanday o‘rin tutishi, ularning qaysi biri ustuvorlik kasb etishi haqida turli-tuman, ba’zan esa ziddiyatli fikr va qarashlar mavjud bo‘lganini va bunday tortishuvlar hozirgacha davom etayotganini kuzatish qiyin emas.

Bashariyat tarixida yashab o‘tgan ne-ne buyuk allomalar bu masala bo‘yicha ko‘plab asarlar yaratib qoldirgani ham shundan dalolat beradi. Misol uchun, qadimiy hind, xitoy yoki yunon faylasuflarini olasizmi, o‘rta asrlardagi Sharq va G‘arb Uyg‘onish davri namoyandalarini olasizmi, islom olamida nom qozongan mutafakkir zotlarni olasizmi - ularning ilmiy merosida moddiy va ma’naviy olam o‘rtasidagi munosabatlarga keng o‘rin berilganini ko‘rish mumkin. Masalan, antik davr faylasuflari bo‘lmish Sokrat va Platon, Epikur va Demokrit xitoy donishmandi Konfutsiy va boshqa allomalarning bu boradagi nazariy qarashlari fan tarixidan yaxshi ma’lum. Ularning ayrimlari ruhiy olamni birlamchi deb bilsa, ba’zilari esa moddiy olamni asosiy o‘ringa qo‘yadi.

Ana shunday tushuncha va tasavvurlar asosida keyinchalik materializm va idealizm kabi ta’limotlar maydonga chiqdi. Uylaymanki, bu o‘rinda ularning tarix, ma’no-mazmuni haqida batafsil to‘xtalib o‘tirishning hojati bo‘lmasa kerak.

Albatta, bunday falsafiy yondashuvlarlarning har biri o‘z davridagi mavjud siyosiy ijtimoiy vaziyat, humron mafkura, jamiyatning huquqiy va madaniy saviyasi, turli sotsial gurux va toifalarning qarashlarini ifoda etishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarda bunday sof nazariy masala doirasidan chiqib, ma’lum bir tuzum yoki davlatning rasmiy mafkurasi maqomini ham olgan. Buning tasdig‘ini uzoqqa bormasdan yaqin tariximizda - sho‘ro zamonida materialistik qarashni ustun qo‘yish natijasida materiya birlamchi, ong esa ikkilamchi, degan tamoyilning hukmron dunyoqarash darajasiga ko‘tarilgani, buning oqibatida insonning ma’naviy qadriyatlari, ayniqsa, uning milliy va diniy tuyg‘ulariga bepisand qarab kelingani misolida ham ko‘rish mumkin. Ushbu masalaga chuqurroq va atroflicha nazar tashlaydigan bo‘lsak, avvalo shuni aytish kerakki, bu ko‘hna dunyo, biz yashayotgan hayot yagona, yaxlit bir voqealikdir. Shunday ekan, moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo‘yish, ularning birini ustun deb bilgan holda, tiriklikning asosiy maqsadi sifatida qabul qilish qandaydir bir yoqlama qarash ifodasi, deb aytsak, xato bo‘lmaydi. Qolaversa, bu masalaga bunday keskin yondashuv, xususan, odamning ruhiy dunyosini mensimaslik, uni ikkilamchi o‘ringa qo‘yish oxir-oqibatda jamiyat hayotida inqirozga olib kelishi muqarrar ekani tarixda ko‘p marotaba isbotlangan.

Bir so‘z bilan aytganda, inson o‘z timsolida ham moddiy, ham ma’naviy xususiyat va alomatlarni mujassam etgan noyob xilqat, yaratganning buyuk va sirli mo‘jizasidir. Shuning uchun ham uning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglash, tushunishning o‘zi o‘ta murakkab bir masala.

Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarni ruyobga chiqarish, uning ongli hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan moddiy va olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o‘ylaymanki, o‘rinli bo‘ladi.

Falsafa kundalik hayotda to‘g‘ri fikrlay olish, mantiqan to‘g‘ri mushohada yuritish usullari va tamoyillarini o‘rgatadi. Shunday bo‘lsa-da, falsafaga qattiq berilib ketishning ham foydasi yo‘q.

Falsafa biz insonlar hayotda qanday qilib to‘g‘ri va oqilona yashashni bilishimiz uchun hayot qonun-qoidalarini o‘rganishimizda kerak bo‘ladi. “Falsafani o‘rganishdan asosiy maqsad yagona, oliy yaratguvchini bilishdir”,- degan edi o‘z vaqtida sharqning buyuk faylasufi Abu Nasr Forobiy.

Ta’kidlab o‘tish joizki, Parvardigori olam to‘g‘risida bahslashishni, uning xususida chuqur ketishlikni deyarli barcha dinlar man qiladi. Chunki, yuqorida aytib o‘tilgan sabablarga ko‘ra, ilmiy bilish, fan, haqiqatni teran ochib berishga qodir emas. Yana qaytaramiz: Aflotun “Falsafaga haddan ortiq berilmoqlik ziyondir”, deb doimo takrorlar ekan. Haddan oshishni Islom dini ham yoqlamaydi. Payg‘ambarimiz Muhammad mustafo sallallohu alayhi vassallam ham bir qancha muborak hadislari orqali bizni bu yo‘ldan qaytarganlar: “Islom aqlning haddan oshishligini ham, orqada qolishligini ham istamaydi” “Dinda haddan tashqari g‘uluv (chuqur) ketmanglar. Chunki sizlardan ilgari o‘tgan qavmlar dinda g‘uluv ketganliklari sababli halok bo‘lganlar”.

“Ishlarning xayrlisi, fazilatlisi o‘rtachasidir”.

Yirik Islom ilohiyotchisi, faylasuf-Imom G‘azzoliy Islom ilohiyoti tizimini ishlab chiqqan va uni falsafiy asoslagan. U dunyo qonuniyatlarini aql orqali bilish mumkinligini e’tirof etgan. Alloh taoloni aql orqali to‘liq anglash mumkin emas, uni maxsus ruhiy, jismoniy psixofizik harakatlar - sig‘inish va ibodatlar orqali anglash mumkin deb hisoblagan.

Biz bu davr Uyg‘onish madaniyatining xarakterli tomonlari sifatida quyidagi xislatlar, belgilarni ko‘rsatishimiz mumkin: Dunyoviy ilmlarga intilish, din va diniy bilimlarni jamiyat, insonlar manfaati nuqtai nazaridan talqin etish;

Turli xalqlarning madaniy-ma’naviy merosi, o‘tmish madaniy qadriyatlaridan (arab, eron, yunon madaniyati boyliklari) foydalanish.

-Tabiatni, mavjud hayotni, mavjudotni o‘rganishga qiziqishning kuchayishi, uning sirlarini ochishga va unda foydalanishga intilishning ortib borishi, shu munosabat bilan tabiatshunoslik ilmlarning rivojlanishi;

- Bilishda aqlni mezon deb bilish, aqliy bilish, ratsionalistik usul, ilmiylik rolining oshib borishi;

- Insonga muhabbat, uning axloqiy, aqliy xislatlarini, qobiliyatlarini o‘rganish va fazilatlarini ochib berishga intilish, mantiq ilmiga katta e’tibor berish, komil insonni tarbiyalash, yetuk fozil jamoa haqidagi fikrlarni asoslab berish;

- Diniy tasavvur, diniy ta’limotlar rivojida diniy-axloqiy mavzuning ustunligi, inson xulqi, manfaatlarining diniy g‘oyalarda yetakchi mavzuga aylanishi, ichki ma’naviy kamolot, Alloh taologa sub’ektiv ichki mukammallashuv, ma’naviy-ruhiy ko‘tarilish, yuksalish yordamida erishuv va uning sifatlariga muyassar bo‘lishga qaratilgan faoliyat;

- Og‘zaki va yozma so‘zga katta e’tibor, uning ijtimoiy axloqiy qudratini kuylash ta’riflash, she’riyat, filologiya, badiiy madaniyatning yuksak rivoji, so‘z san’ati, ritorika (al-xitoba) bilan shug‘ullanish madaniylikning muhim belgisiga aylanib borishi. Bu xislatlar o‘sha davr ilg‘or ma’naviyatining xarakterli xususiyatiga aylanadi.

O‘ylashimizcha, ana shunday falsafa asosida milliy, ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlar mujassamlangan “O‘zbekistonning mustaqil milliy mafkurasi”ni yaratish kerak.

XULOSA

Shunday qilib, O‘zbekiston taraqqiyotining ma’naviy-axloqiy negizlarini yaratishda fikrlar xilma-xilligiga asoslangan siyosatni amalga oshirish va ijtimoiy fanlar, avvalo falsafa fanining ana shunday nazariy asoslari va metodologiyasini yaratishga e’tibor berish lozim. Yangi yaratiladigan falsafa, yuqorida aytganimizdek, mohiyatan insonga, insonning iymon-e’tiqodini shakllantirishga, uni yuksak axloqli shaxs sifatida kamol toptirishga yo‘naltirilgan bo‘lmog‘i kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдулҳайр Абдураҳмонов. Саодатга эдтувчи билим. 432-бет. Т. “Мовароуннаҳр” 2003.
2. Ислом Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. 62 бет. Т. Маънавият 2008.
3. Бэкон Френсис (1561-1626)–ингилиз файласуфи. Қиролликда “Лордканцлер” лавозимида ишлаган.

4. М.М.Хайруллаев. Ўрта Осиёга илк уйғониш даври маданияти. 71-72 бетлар. Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Ф.А. “Фан” нашриёти, 1994 й.

5. Инсон ҳуқуқлари: махсус курс/ О.Ҳусанов,О.Каримова, Х.Азизов ва бошқ; масъул муҳаррир О.Ҳусанов.–Тошкент: Шарқ,1997.–144

6. Пўлатова Б. Инсонийлик ва инсон ҳуқуқлари:Услубий қўлланма.–Тошкент:Адолат,1999.–112 б.

7. Абдукаримов Ҳ. Инсон манфаати ҳамма нарсадан устун / Ўзбекистон мусулмонлар идораси.–Тошкент: Movaronnahr, 2017.–64 б.

8. Абдурахмонова Н. Х**.** Инсон ҳуқуқлари – олий қадрият // Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2014. – № 1. – Б. 11–12.

9. Shodiyev, J. J. (2020). U THE QUESTION OF HUMAN DESTINY AND FREE IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF OMAR KHAYYAM. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *2*(2), 197-202.

10. Shodiev Jahongir Jurakulovich. Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. International Engineering Journal For Research & Development 2020/4/16.

11. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(10), 1160-1164.

12. Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch – 3.2023. 19-21.

13. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(9), 251-261.

14. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN INCREASE OF HUMAN VALUES. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(7), 616-625.

15. Jurakulovich, S. J. (2023). PHILOSOPHICAL VIEWS OF SAGES ON HUMAN VALUES AND GLORIFYING HIM. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, *2*(16), 229-238.

16. Shodiev, J. J. (2023, June). ZNAChENIE ISTORIChESKOGO MЫShLENIYa V SOZDANII FUNDAMENTA TRETEGO VOZROJDENIYa I YeGO ZNAChENIE V UKREPLENII ChELOVEChESKIX sENNOSTEY. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 124-130).

17. Jurakulovich, S. J. (2022). AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(10), 1160-1164.

18. Jurakulovich, S. J. (2022). ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(5), 43-47.

FALSAFA

UDK: 17, 392.4(574.63) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a30**

O‘ZBEK MILLIY NIKOH MAROSIMLARINING TRANSFORMATSION XUSUSIYATLARI VA UNING MA’NAVIY QIYOFASI

ТРАНСФОРМАЦИОННЫЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО БРАЧНОГО ОБРЯДА И ЕГО ДУХОВНОГО ОБРАЗА

TRANSFORMATION CHARACTERISTICS OF UZBEK NATIONAL MARRIAGE CEREMONIES AND ITS SPIRITUAL IMAGE

G‘afurov Doniyor Oripovich[1]

[1]G‘afurov Doniyor Oripovich – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolada yurtimizda qadim-qadimdan oila va nikoh muqaddas Vatan sanalganligi takidlangan. O‘zbek nikoh marosimlaridagi o‘zgarishlarni amalga oshiradigan faktorlar zamonaviy turmush tarziga intilish va jamiyatdagi bo‘ladigan o‘zgarishlar, xususan, bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi ekanligi haqida bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье подчеркивается, что семья и брак издревле считались в нашей стране священной Родиной. Утверждается, что факторами, вносящими изменения в брачные обряды узбеков, являются стремление к современному образу жизни и изменениям в обществе, в частности, углублению рыночной экономики.

Abstract

In this article, it is emphasized that family and marriage have been considered a sacred Motherland in our country since ancient times. It is stated that the factors that make changes in Uzbek marriage ceremonies are the desire for a modern lifestyle and changes in society, in particular, the deepening of the market economy.

Kalit so‘zlar: *Oila, nikoh, ta’lim, fan, tarbiya, barqaror taraqqiyot, ma’naviy yetuklik.*

Ключевые слова: *Семья, брак, образование, наука, воспитание, устойчивое развитие, духовная зрелость.*

Key words: *Family, marriage, education, science, upbringing, sustainable development, spiritual maturity.*

KIRISH

Yangi O‘zbekiston rivojlanishida rahbar xodimlar insonlar qalbiga yo‘l topishi, ma’naviy tahdidlardan asrashi O‘zbekistonimiz taraqqiyotining mustahkam poydevoridir. Mustaqillik yillarida jamiyatning yadrosi bo‘lgan oila va nikoh marosimlari bo‘yicha transformatsion holat aholini jismoniy sog‘lomlashtirish, jamiyatda ayollarga bo‘lgan munosabat o‘zgarishi va “sog‘lom ona va sog‘lom bola” tamoyili ishlab chiqilishi bilan izohlanadi. Bu tamoyil asosida qator yillar davlat dasturlari ona va bolani sog‘lomlashtirish, reproduktiv sog‘lomlik, tug‘riq yoshidagi ayollarga davlatning ko‘magi, sog‘lom avlod uchun ordenining ta’sis etilishi singari jiddiy islohotlar olib borildi. O‘zbekistonning birinchi Prezidentining tashabbusi bilan jamiyatning genofondini yangilash, nikohning axloqiy mohiyati va estetik evolyusiyasini rag‘batlantirish singari chora-tadbirlarning qo‘llanishi sog‘lom nikoh–sog‘lom oila–sog‘lom bola singari estetik transformatsion jarayonni yuzaga keltirdi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O‘zbek nikoh marosimlarining transformatsiyaga uchrashida o‘zbek mentalitetidagi va ijtimoiy ongdagi immanent belgilaridagi o‘zgarishlar asosiy rolni bajaradi. Bular quyidagilardir:

- o‘zbek etnomadaniyatidagi nikoh va oila munosabatlarining tabiiy, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-huquqiy, qadriyatli turmush tarzi bilan bog‘liq qonuniyatlarning rivojlanishi;
- ijtimoiy-iqtisodiy turmushning farovonlashishiga qarab, nikoh marosimlari va taomillarining takomillashishi;
- o‘zbek milliy nikoh marosimlarining etnik xususiyatini saqlash, sog‘lomlik go‘zallikni zamonaviy unsurlar bilan boyib borishi va “markaziy urf-odatlarga tortilish” mexanizmining mavjudligidir.

O‘zbek nikoh marosimlaridagi bunday o‘zgarishlarni amalga oshiradigan faktorlar: zamonaviy turmush tarziga intilish va jamiyatdagi bo‘ladigan o‘zgarishlar, xususan, bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvidir. Bular milliy qadriyatlarning immanent belgilari bo‘lib, transformatsiyaga tortilishida markaziy etnomadaniy mohiyatini (oila muqaddasligi, erkak kishi qiz bolaga uylanishi, farzand tarbiyalashi) saqlagan holda zamonaviy qadriyatlar bilan boyib, keyingi ijtimoiy muhitga o‘sib o‘tadi.

Milliy qadriyatlarimizga ko‘ra, nikohlanuvchi ikki qarama-qarshi jins sohiblari katta hayotga qadam qo‘yishdan maqsadlarini aniq bilishlari kerak. Shu bois, nikohdan o‘tayotgan erkak va ayol oila qurishga tayyor bo‘lishlari lozim. Buning uchun, birinchi navbatda, ota-ona yoki ularning o‘rnini bosuvchi kishilar farzandlarini sog‘lom, odobli, mard, irodali, mag‘rur, erkaklik mas’uliyatini xis qiladigan, mehnatsevar qilib tarbiyalashlari lozim. O‘g‘il bolalar ayollar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo‘lishlari, yigitlarning oilani moddiy jihatdan ta’minlashga mas’ulligi, oila xo‘jaligidagi og‘ir ishlarni bajara olishlari, xo‘jalik yuritishni bilishlari, oilaning qadriga yeta oladigan vafodor, bolajon, mehribon bo‘lishlari maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 15-moddasi birinchi qismi bilan nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun 18 yosh etib belgilanmoqda. Amalda esa ayollar uchun 17 yosh edi. *Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarni o‘zaro kelishuv yo‘li hal qilinishi, oilada bolalalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan hamda mehnatga layoqatsiz oila a’zolarining huquq-manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi[1].*

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sharq mamlakatlarida: “Erlar ayollar uchun birinchi bo‘lishni, ayollar esa erkaklar uchun so‘nggisi bo‘lishni orzu qiladi”[2], degan gap bor. Buning ma’nosi bunday: er uylanmoqchi bo‘lgan qizning avval boshqa erkak bilan bo‘lmaganini orzu qiladi. Xotin esa, “Erim mengacha yurgan bo‘lsa yurgandir, endi yurmasin”, deb orzu qilishidir[3] . Bu tushuncha turli madaniyatlarda har xil qabul qilinadi.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam: “Ayolni to‘rt narsa-mol-mulki, nasl-nasabi, go‘zalligi, din-diyonati uchun nikohlab oladilar. Sen diyonatlisini tanla, baraka topkur!”, deganlar. Xojagi Ahmad Kosoniy fikricha, agar adolat o‘rnatish qo‘lidan kelmasa va boshqasini tanlasa, qarshi amal qilgan bo‘ladi va o‘zini o‘z qo‘li bilan ulkan halokat girdobiga solgan bo‘ladi.

Mazkur sifatlar erkaklarga ham xos. Zero, qiz ham yigitning kelishganligi, boyligi, obro‘si, nasabiga aldanib qolmay, diyonatli yigitni tanlashi kerak. Diyonatli, solih yigit juft bo‘lish uchun eng muhim sifatlarga ega sanaladi. Diyonatli yigit xotinini har tomonlama himoya qiladi, u bilan totuv yashaydi, uncha-muncha injiqliklarini ko‘taradi. Eng muhimi, uni yaxshi ko‘rsa, e’zozlaydi. Bordi-yu yomon ko‘rsa, zulm qilmaydi. Agar ayol birga yashashni istamasa, uni qiynab ushlab turmaydi, yo‘lini ochib qo‘yadi.

Hazrat Rasul s.a.v. buyurgan ekan: “Xayr kum xayru kum la havla va ano xayru kum liahli”. Ya’ni: “Sizlarning eng yaxshilaring uldirkim, o‘z oilasiga azizroqdir. Va men o‘z oilamga hammadan azizroqman”. Imom G‘azzoliy “Nikoh odobi” asarida juft tanlashda quyidagi jihatlarga ahamiyat berish lozimligini ta’kidlagan: Bo‘lg‘usi kelinning din-diyonatli bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Zero, haqiqiy soliha, diyonatli ayolda keyinchalik boshqa ibratli, yaxshi jihatlar ham jamuljam bo‘ladi. Yaxshi axloqli bo‘lishi ham muhim. Zero, mahmadona, shallaqi, qanoatsiz, buzuqi ayoldan solih farzand dunyoga kelishi dargumon. Shu bois bo‘lajak kuyovlarga minnatni xush ko‘radigan, shahvatparast, molparast, besabr, ko‘cha uchungina bezanadigan xulqi yomon qizlar bilan oila qurmaslik tavsiya etiladi.

Kelinning go‘zal, xushro‘y bo‘lishi ham zaruriy shartlardan sanaladi. Chunki muhabbatni alangalatuvchi omillardan biri chehra go‘zalligidir. Ko‘rimsiz ayol chehrasi ko‘ngilni tezda zada qilishi mumkin. Shu bilan birga, go‘zallik diyonat, xushxulqlikdan ayro bo‘lmasligi lozim. Diyonatsiz, badxulq ayolning chehra go‘zalligi buzuqlikka yetaklashi xavfi bor.

Ayolning nasl-nasabli bo‘lishi ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbekchilikda yetti ajdod surishtirilishi bejiz emas. Zotan, tag-tugli, zoti asl, diyonatli qizlargina kelajakda iffatli, hayoli muslima ayol bo‘lib, solih, sog‘lom farzandlarni tarbiyalashga qodir bo‘ladi. Bu o‘rinda nasliy kasalliklarni surishtirish ham zarur.

Juftlikka tanlangan ayol yaqin qarindosh bo‘lmagani ma’qul. Chunki shahvat quvvati ham ehtirosli nazar, erkalashga uzviy bog‘liq. Zamonaviy tibbiyot ilmi ehtiroslar jo‘shqinligi ayolning

notanishligiga bog‘liq ekanini e’tirof etmoqda. Aniqlanishicha, yaqin qarindoshlardan qurilgan oilalardagi erkaklarda “ruhiy mijoz sustligi” dardi ancha ko‘p uchrar ekan.

Hozirda ko‘p odamlar kuyov va qiz tanlashda oqibatini o‘ylamay ish qilishmoqda. Ular imon-e’tiqodi, odob-axloqidan ko‘ra otasining mansabiga, boyligiga uchib farzandlari baxtiga zomin bo‘lishmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 57-moddasida (Qarindoshlik) ko‘ra, bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs o‘rtasidagi to‘g‘ri shajara bo‘yicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya’ni tug‘ilish soni bilan belgilanadi. Bolalar ota-onasiga nisbatan to‘g‘ri shajaradagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan-ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan-uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi va ular o‘rtasida nikoh ta’qiqlanadi, deb belgilangan[4].

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlab, ularni sog‘lom, odobli, kattalarni hurmat qiladigan, iffatli, nomusli, hayo-iboli, mehnatsevar, uy-ro‘zg‘or ishlarini olib boradigan, mehmondo‘st uy bekasi darajasiga yetkazish baxtli turmushga kafolat bo‘la oladi. O‘zbekistonda nikohni, uning ijtimoiy mohiyati va maqsadiga ko‘ra hamda oilani mustahkamlash ehtiyojini, yosh avlodning axloqi va sihat-salomatligini hisobga olib, bir qator shartlarga rioya qilgan holda tuzish zarurligi belgilandi. Yoshlarning nikohlanishi shartlari, talablari va qoidalari o‘zgarishiga hukumat qonunlari asosiy rol uynagan. Keyingi paytda nikohga qo‘yilgan shartlarning takomillashishi nikohning estetik jihatdan evolyusiyasi davom etayotganidan dalolat beradi.

Nikohdan o‘tish shartlarining asosiy omillari quyidagilardir:

birinchidan, nikohdan o‘tish oilani mustahkamlash, turmushni estetikalashtirish; ikkinchidan, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish singari go‘zallikdan zavqlanish muhitini yaratish, uchinchidan, hammani (mahalla ko‘y, qarindosh-urug‘ oldida), oila oldida o‘z bokiraligini namoyon qilish va forig‘lanish; to‘rtinchidan, katta yoshdagilarning mas’ulligi hissi asosida nikohlanish; beshinchidan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslikdan, oila a’zolari o‘z huquqlarini biron to‘sqinliksiz amalga oshirishni hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta’minlashdan iboratdir. Shu bois, amaldagi oila qonunchiligini nikohning shakliga, ya’ni uni davlatning tegishli rasmiylashtirilishiga alohida e’tibor beradi.

Xalqimizni boshqa xalqlarga o‘xshamaydigan milliy nikoh marosimlarini o‘tkazish bugungi kunda o‘zining dolzarbligi va muhim falsafiy ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi. Shu boisdan, yoshlarimizning milliy ma’naviy merosimiz asosida kamolotga yetkazish va qadriyatlarni kelajak avlodlarga o‘z holicha yetkazib berish masalasi doimiy, uzluksiz, tadrijiy davom etib boraveradi.

O‘zbekiston o‘z taraqqiyoti yo‘lida o‘tmish ma’naviy merosga bo‘lgan munosabatlarni yangicha falsafiy dunyoqarash va estetik tafakkurni ham rivojlantirdi. Kishilik jamiyati tarixidan ma’lumki, dastlabki nikoh asosida barpo etilgan oilalar har tomonlama sog‘lom, butun va mustahkam bo‘lishi bilan birga, farzand tarbiyasida ham tinch va xotirjamlikni o‘zida ifodalagan. Shuning uchun ham, o‘zbek xalqi milliy nikoh marosimlarining ma’naviy kamolot darajasi o‘ziga xos axloqiy ideallarni va go‘zal estetik jihatlarni o‘zida ifodalab kelgan. Bunday marosim va urf-odatlar asta-sekin keng jamoatchilik tomonidan o‘rganilib, keyinchalik qonuniy nikoh marosimi ko‘rinishlariga aylanib ketgan.

XULOSA

Insonlar qalbiga yo‘l topish, ma’naviy tahdidlardan asrash va O‘zbekistonimiz taraqqiyotining mustahkam poydevoridir. Ma’naviy qadriyatlar har bir davlatning milliy o‘zligini anglashi jarayonida birinchi galdagi buyuk xazina sanaladi. Biron-bir davlat o‘z xalqi ongida ma’naviy Va estetik qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o‘zining yorqin kelajagini tasavvur eta olmaydi. Mana bir necha ming yildirki, o‘zbek xalqining madaniy qadriyatlari, ma’naviy merosi sharq xalqlari, qolaversa, butun dunyo ahli uchun qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Ўзбекистон Республикасининг 30.04.1998 йилдаги Оила кодексининг 15 моддаси. 2019 йил 28 августдаги ЎРҚ-558-сонли Қонуни таҳририда — Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.08.2019 й., 03/19/558/3662-сон)

2. Ҳамдамов Сардорбек Сафар ўғли. “Оммавий маданият”нинг тараққиёт ва миллий маънавиятга таҳдиди. Бухоро. 2012. https://uz.denemetr.com/.

3.Косоний Ахмад Хожагий. Асрор-у н- никох. Қўлёзма. ЎзР ФАШИ. № 501/I ; - Б. 12.

4. Ўзбекистон Республикасининг 30.04.1998 йилдаги Оила кодексининг 15 моддаси. 2019 йил 28 августдаги ЎРҚ-558-сонли Қонуни таҳририда Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.08.2019 й., 03/19/558/3662-сон)

5.Komilov N. Komillik tariqati // Tafakkur-1998. 1-son.64-bet.

6.Anbiyo surasining bu oyatidagi so‘zlar Zakariyo tomonidan aytilgan bo‘lib, 7.Nuh payg‘ambar duosiga ma’nodosh bo‘lgani uchun keltirilgan.

8.Prezidentimizning 2018 yilning 19-20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifidagi uchrashuv. – S.: 2018

9.Baxtli hayot sari. –T.:2017

10. Kosoniy Axmad Xojagiy. Asror-un-nikox. Qo‘lyozma. O‘z.R FAShI. № 501/I; - V 12.

SIYOSAT

UDK: 342.5(575.1)-048.35 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a31**

YANGI O‘ZBEKISTONDA DAVLAT XIZMATI SOHASI TAKOMILLASHUVI JARAYONLARI

ПРОЦЕССЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

THE PROCESSES OF IMPROVING PUBLIC SERVICE IN THE NEW UZBEKISTAN

Mirzabayev Kuatbay Baxitbayevich[1]

[1]**Mirzabayev Kuatbay Baxitbayevich** – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrasi mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya

Mazkur ilmiy ishda milliy davlat xizmati tizimiga samarali texnologiyalarni joriy etish yuzasidan xalqaro tajribani tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar bugungi davrning dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralgan. Shuningdek, ma’muriy boshqaruv tizimini takomillashtirish va Yangi O‘zbekistonda davlat xizmati sohasini modernizatsiyalash borasida olib borilayotgan islohotlar negizini yoritish hamda markaziy idoralarni transformatsiya qilish orqali fuqarolarga xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruv tizimini yaratishga bag‘ishlangan.

Аннотация

В данной научной работе научные исследования, направленные на изучение международного опыта внедрения эффективных технологий в национальную систему государственной службы, рассматриваются как одна из актуальных проблем современности. Также он посвящен созданию компактной и эффективной системы управления, обслуживающей граждан, посредством совершенствования системы административного управления и модернизации сектора государственных услуг в Новом Узбекистане.

Abstract

In this scientific work, scientific research aimed at studying foreign experience in introducing effective technologies into the national civil service system is considered as one of the topical issues of today. It is also devoted to clarifying the foundations of reforms carried out in the field of modernizing the civil service in New Uzbekistan, as well as creating a compact and efficient management system that serves citizens through the transformation of central bodies.

Kalit so‘zlar: *Ma’muriy islohotlar, nomarkazlashtirish, devolyusiya, dekonsentratsiya, fiskal nomarkazlashtirish,elektron hukumat,zamonaviy davlat boshqaruvi,modernizatsiya.*

Ключевые слова: *Административные реформы, децентрализация, деволюция, деконцентрация, фискальная децентрализация, электронное правительство, современное государственное управление, модернизация.*

Key words: *Administrative reforms, decentralization, devolution, deconcentration, fiscal decentralization, e-government, modern public administration, modernization.*

KIRISH

Ma’lumki, mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida o‘tkazilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning natijadorligiga erishishda davlat boshqaruvining mutlaqo yangi, samarali va sifatli tizimini yaratish, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining uyg‘un faoliyatini tashkil etish muhim hisoblanadi.

Davlat boshqaruvi organlarining zamonaviy talablarga javob bermaydigan institutsional asoslari va ular faoliyatining prinsiplari o‘tkazilayotgan islohotlarni to‘liq ro‘yobga chiqarishga hamda qo‘yilgan maqsadlarga erishishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababdan, davlat hokimiyati tizimini modernizatsiyalash asosan ma’muriy islohotlarni amalga oshirish, markaziy va mahalliy hokimiyat organlari tizimini nomarkazlashtirish, o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlarga davlat hokimiyatining ba’zi vakolatlarini uzatish, davlat xizmati kadrlarini yangilash va qayta tayyorlash kabi sohalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

“Ma’muriy islohotlar” tushunchasi (“ma’muriy” tushunchasi lotin tilidan kelib chiqqan “administratsiyaviy” (administrate – boshqaruv, rahbarlik) tushunchasini anglatadi) ikki xil – tor va keng ma’nolarda qo‘llaniladi. Keng ma’noda – davlat boshqaruvi tizimida keng miqyosli va chuqur tuzilmaviy qayta o‘zgartirishlarni amalga oshirish, tor ma’noda – davlat xizmati sohasini tubdan qaytadan qurish islohotlarini amalga oshirish anglanadi.

Hozirgi davrda ma’muriy islohotlarni amalga oshirayotgan davlat asosan Yevropa davlatlari, ayniqsa, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya tajribasiga tayanadi. Bu islohotlarni amalga

oshirishning davlat ichidagi sabablari – bu siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot-kommunikatsiyaviy, boshqaruv va umum-ilmiy o‘zgarishlarga zarurat sezilishi hisoblanadi. Siyosiy sabablarga davlat apparati ishidan fuqarolarning noroziliklari paydo bo‘lganida, davlat sektorida iqtisodiy-ijtimoiy muammolar vujudga kelganida, siyosiy elitaning fuqarolar oldida davlat institutlariga nisbatan ishonchining kamayishi natijasida mavqeyi tushib ketgan ma’muriy-davlat boshqaruvini demokratlashtirish yo‘li bilan isloh etish tushuniladi. Iqtisodiy sabablarga davlat xizmati shtatlar jadvalining kengayib ketishi, ularga sarflanayotgan mablag‘larning oshib ketishi va byudjet defitsiti kabilar kiradi. Ijtimoiy sabablarga esa davlat xizmati tomonidan aholiga xizmat ko‘rsatishda uning sifati tushib ketishi va byurokratiyaning avj olishi oqibatida noroziliklar paydo bo‘lishiga aytiladi.

Boshqaruv sohasidagi sabablarga davlat sektori boshqaruv texnologiyalarini biznes sohasidagi boshqaruv darajasidan pastga tushib ketish holatiga aytiladi. Axborot-kommunikatsiya sohasidagi sabablarga esa davlat xizmatini samarali amalga oshirish uchun yangi axborot-kommunikatsiyalaridan foydalanishga doir islohotlarni kiritish mumkin. Umum-ilmiy sabablarga davlat boshqaruvidagi mansabdorlarning doimo takomillashib borayotgan boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o‘rganmasligi, unga bepisandlik bilan qarashlari, islohotlarni amalga oshirishda ilm-fan salohiyatidan foydalanishga kam ahamiyat berilishi kabi holatlarga barham berishga doir o‘zgarishlar tushuniladi.

Zero, mamlakatimiz taraqqiyotini ta’minlovchi islohotlarning hozirgi bosqichida ham milliy davlat xizmati tizimini takomillashtirish borasida uni nafaqat tuzilmaviy jihatdan yangilash, balki tashkiliy-texnik jihatdan ham modernizatsiya qilish zarurati mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning muhim sharti hisoblangan samarali faoliyat yurituvchi boshqaruv tizimini shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ma’muriy islohotlar amalga oshirildi.

Bu borada Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi [1] Farmoni 2017-2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda muhim qadam bo‘ldi hamda mohiyatiga ko‘ra O‘zbekistonning davlat va jamiyat qurilishida yangi sahifani ochib berdi. Konsepsiyada davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta asosiy yo‘nalishi belgilab berilgan bo‘lib, to‘rtinchi yo‘nalish, aynan vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirishga bag‘ishlangan.

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy islohotlar konsepsiyasida davlat boshqaruvining mutlaqo yangi, samarali va sifatli faoliyat yurituvchi tizimini yaratish, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining uyg‘un faoliyatini tashkil etish talab qilinayotgani, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini baholash mexanizmlari faqat holatlarni qayd etish va statistik ma’lumotlarni joriy to‘plashdan iborat bo‘lib, bu ko‘pchilik hollarda joylardagi ishlarning haqqoniy holatini aks ettirmayotgani ta’kidlanib, maqsadli indikatorlarga erishishga asoslangan, barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning rahbarlari faoliyatini baholashning prinsipial yangi tizimini joriy qilish belgilab qo‘yilgan.

Ushbu Farmonida mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko‘lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat boshqaruvining mutlaqo yangi va samarali faoliyat yurituvchi tizimini yaratish talab qilinayotgani qayd etilgan. Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi normalarini amaliy ro‘yobga chiqarish bo‘yicha 40 dan ortiq aniq tadbirlarni nazarda tutuvchi “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha komissiya hamda davlat boshqaruvi tizimini tanqidiy o‘rganish va uni tubdan isloh qilish yuzasidan takliflar tayyorlash bo‘yicha ishchi guruhlar tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi PQ 3182-sonli qarorida ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini ta’minlash belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4102-son qarorida [2] sektorlar rahbarlari faoliyatini baholash tartibining murakkabligi, tizimli ravishda ular malakasini oshirish mexanizmining joriy etilmaganligi, sektor a’zolarini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishning yo‘lga qo‘yilmaganligi ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani qayd etilgan. Qarorda sektorlar rahbarlarining faoliyatini hududlarning rivojlanish ahvolidagi real

o‘zgarishlardan va boshqa haqqoniy mezonlardan kelib chiqib xolisona baholash va boshqa masalalar belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organlari hay’atlarining faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 855-sonli Qarori [3] ilovasida idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini baholash bo‘yicha miqdor va sifat indikatorlarini ishlab chiqish, ushbu indikatorlar bo‘yicha belgilangan parametrlar so‘zsiz ta’minlanishini, shuningdek belgilangan parametrlar buzilishiga yo‘l qo‘ygan tegishli xodimlarga nisbatan javobgarlik choralarini kollegial organlar yig‘ilishlarida muntazam ko‘rib chiqish hamda bu borada tegishli qarorlar qabul qilish belgilangan.

Ma’muriy islohotlar konsepsiyasida yuqorida keltirib o‘tilgan holatlarni bartaraf etish, davlat boshqaruvining samaradorligini, davlat xizmatlarini ko‘rsatishning sifatini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, konsepsiya – bu, eng avvalo, mamlakatimiz rivojlanishini ta’minlovchi ustuvor yo‘nalishlar o‘z ifodasini topgan muhim strategik hujjatdir. Ushbu ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishning to‘laqonli huquqiy mexanizmlarini yaratish katta mehnat talab etadi. Bunda mutasaddi tashkilotlar, oliy ta’lim, tadqiqot muassasalari va keng jamoatchilikning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezident Sh.Mirziyoyev 2022–-yilning 20-dekabr kuni Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida hozirgi kunda davlat apparatida takrorlanish ko‘pligi, keraksiz shtatlar borligi, markazlashuv yuqoriligini qayd etgan.

Shu munosabat bilan Davlatimiz rahbari ixcham va samarali davlat boshqaruv tizimiga o‘tish maqsadida keng ko‘lamli ma’muriy islohotlarni ilgari surgan edi.

Uzoq tayyorgarlik ko‘rilgan va chuqur tahlil qilingan ushbu islohotlarni hayotga joriy etish, Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy talablarga javob beradigan ixcham davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, qaror qabul qilish va masalani ko‘rib chiqish jarayonlarini soddalashtirish orqali davlat organlari rahbarlarining mas’uliyatini oshirish hamda ular faoliyatini natijadorlikka yo‘naltirish, shuningdek, Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlari dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida 24-dekabr kuni qabul qilingan “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [4] Prezident qarori qabul qilingan.

Qarorda ijro hokimiyatining respublika va mahalliy darajalari o‘rtasidagi funksional farqlar belgilab qo‘yilgan.

Hujjatdan kelib chiqadiki, ijro hokimiyatining respublika tashkilotlari tegishli sohada yagona davlat siyosatini ishlab chiqadi va uning amalga oshirilishini ta’minlaydi, shuningdek, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini uslubiy jihatdan ta’minlaydi;

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, ularga davlat xizmatlari ko‘rsatish, shuningdek, hududiy bo‘linmalarning xalq bilan ochiq muloqot o‘rnatish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish va umumlashtirish;

Ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimiga kiruvchi va ularning tashkiliy bo‘ysunishida bo‘lgan faoliyatini baholashning maqsadli ko‘rsatkichlarini belgilash, shuningdek, ushbu ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish va hokazo.

Hududiy organlar sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirish va tegishli hududda belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishishga qaratilgan amaliy va maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Barcha respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining 5 mingga yaqin funksiyalari qayta yozilgani, o‘z ahamiyatini yo‘qotgan va funksiyalarni amalga oshirish mexanizmlari bilan ta’minlanmagan 500 ga yaqin takroriy funksiyalari aniqlanganligini hisobga olib, respublika va hududiy organlar funksiyalarining ochiq reyestri belgilandi.

Shuni qayd etish lozimki, davlat xizmati jarayonlari har qanday mamlakatda davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiyalashga qaratilgan islohotlarning ajralmas qismi ekanligini va zamonaviy davlat boshqaruvi institutlarini va mexanizmlarini joriy etish hamda ular faoliyatining samaradorligini oshirish zaruriy shartlardan biri ekanligini kuzatish mumkin.

Bu boradagi xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganilgan tadqiqotlarda [5] keltirilgan ma’lumotlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, har bir davlatning boshqaruv organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining munosabatlarini shakllantirishda o‘ziga xos jihatlar mavjudligi namoyon bo‘ladi.

Ma’muriy islohotlarning negizini tashkil etgan nomarkazlashtirish islohotlari dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida Fransiyada boshlandi. Oz fursatdan keyin bu kabi islohotlar Buyuk Britaniya, Germaniya va Shvetsiya davlatlarida boshlandi. XX asr oxiriga kelib bu jarayonlar Yevropa va Shimoliy Amerikaning barcha davlatlarida boshlandi. O‘n yil ichida nomarkazlashtirish g‘oyalari jahondagi mamlakatlarning aksariyat qismiga tarqaldi. Bu islohotlar qisqa davr ichida o‘zining ijobiy samaralarini bera boshladi.

Ma’muriy islohotlarni amalga oshirishga tashqi (xorijiy va xalqaro) ta’sir, ayniqsa, jahon integratsiyasi va globallashuv kabi omillar ta’siri natijasida amalga oshiriladigan o‘zgarishlar nazarda tutiladi. Integratsiyaga intilish har bir davlat amalga oshiriladigan ma’muriy islohotlarni rag‘batlantiradi.

Hozirgi davrga kelib aksariyat davlatlarda davlat islohotlari ma’muriy, byudjet va davlat boshqaruvi kabi yo‘nalishlarning qaysi birida amalga oshirilmasin, ularning barchasi uchun umumiylik kasb etadigan quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga qaratiladi:

– byudjet xizmatining sifatini oshirish;

– davlat xarajatlari samaradorligini oshirish;

– ijro hokimiyati va uning barcha darajadagi organlari faoliyati va boshqaruv tizimi sifatini oshirish.

Hozirgi davrda AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarda natijalar bo‘yicha boshqarish konsepsiyalari asosida islohotlar amalga oshirildi. Bu kabi yangi o‘zgarishlar ko‘plab mamlakatlarga tarqaldi. Shuning uchun ham bu sohadagi umumiy vazifa sifatida byudjet xizmati sifatini oshirish davlatlarning aholi bilan faol hamkorlik qilishiga doir dolzarb vazifaga aylandi. Davlatlar davlat xizmatiga nisbatan aholining qanday xohish e’tibori moyilroq ekanligini aniqlash uchun ularning fikrlarini doimiy ravishda monitoring qilib boradi. Jumladan, Buyuk Britaniya munitsipal organlari doimiy ravishda aholi o‘rtasida taqdim etilayotgan davlat xizmatining sifati, ularning soliq yuki va hajmiga muvofiq kelishi darajasi to‘g‘risida so‘rovnomalar o‘tkazib turadi.

Bu sohadagi islohotlarni amalga oshirish vazifalaridan biri fuqarolar bilan ishlash reglamentlari tizimini ishlab chiqishdan iboratdir. Buyuk Britaniyada bu kabi tizim “fuqarolar bilan ishlash standartlari” deyiladi. Unda davlat xizmatchilari uchun aholi bilan ishlashning ko‘rsatkichlari aniqlab beriladi. Fransiyada esa 2000-yildan buyon har bir davlat muassasasi uchun fuqarolar bilan munosabatlar o‘rnatishning yo‘l-yo‘riqlari va majburiyatlari “Davlat xizmatini muvofiqlashtirish to‘g‘risida”gi qonunga kiritilgan. Bundan tashqari, hukumat yana “ko‘plab davlat xizmati olish turlarini soddalashtirish”ga doir qarorlar qabul qilib, aholidan to‘lovlar olishning yangi qoidalari joriy etilgan.

Yevropa mamlakatlarida davlat sifatli xizmat ko‘rsatishi uchun maxsus xizmatlar tashkil etila boshlandi. Ish qidirayotgan fuqarolar uchun maxsus shaxsiy keys-menejer (case-manager) ajratiladi. U o‘z egasi uchun ish topishga oid davlat xizmatlar to‘g‘risida axborotlar berishdan tashqari bu soha bilan bog‘liq barcha davlat xizmatlaridan ma’lumotlarni ham yig‘ib beradi. Bu sohadagi yana bir yo‘nalish – bu rivojlangan mamlakatlarda aholiga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlarining shaffofligini oshirish va bu xizmatlar tezkorligini ta’minlashga qaratish hisoblanadi. Bu vazifalarni amalga oshirishni ta’minlash transport, viloyatlar va munitsipalitetlar Departamentlariga topshirilgan. Ular har yilda o‘z rasmiy saytlarida eng samarali va sifatli tajriba kodeksi indekslarini ishlab chiqib aholiga taqdim etadi. Shuningdek, 2000-yildan boshlab aksariyat g‘arb mamlakatlarida har bir vazirlikning xizmat ko‘rsatish sifatini baholash rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash qoidasi o‘rnatilgan.

Yevropa mamlakatlarida ma’muriy islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ochiq boshqaruv tizimini shakllantirishga muhim ahamiyat berildi. Shu maqsadda ma’muriy faoliyat va sud ishlarini olib borish ancha takomillashtirildi. Agar bu sohadagi islohotlarga Buyuk Britaniya tajribasini misol keltirsak, bu davlatda keyingi o‘n yillikda boshqaruv tizimidagi quyidagi muammolar yechimini hal etish uchun ma’muriy islohotlarni amalga oshirdi:

–davlat boshqaruv organlarining barcha sifat o‘lchamlarini biznes boshqaruvi, ayniqsa, korporativ boshqaruvdan ancha orqada qolganligi;

–menejment va axborot texnologiyalarini tinimsiz ravishda takomillashib borishi muhitida davlat boshqaruvi funksiyalarini amalga oshirishning qimmatlashib borishi;

–davlat apparatida zarurat bo‘lmagan mansablarning mavjudligi, mansabdorlarning o‘z burchiga jonkuyarlik bilan yondashishini ta’minlab bo‘lmasligi, ularda mas’ullikning yetishmasligi;

–tejamkor va samarali davlat apparatini shakllantirish ehtiyoji kuchayib borishi, mavjud boshqaruv resurslar olinadigan natijalar talab asosida emasligi, ular faoliyatini baholash tizimini isloh etish zarurati.

Mazkur islohotlar natijasida Buyuk Britaniya jamiyatida fuqarolik jamiyati asoslari yanada mustahkamlandi, jamiyatdagi barqarorlikning doimiyligini ta'minlashga doir mexanizmlar shakllandi. Aholi farovonligi ham ancha o'sdi.

Ma'muriy islohotlarning tayanch poydevori – davlat hokimiyati organlarini nomarkazlashtirish (lot.detsentralizatsiya) hisoblanadi. Shuning uchun ham BMTning Inson taraqqiyoti dasturida barcha mamlakatlarda hokimiyat organlarini nomarkazlashtirishga da'vat etiladi. Dasturda keltirilishicha, nomarkazlashtirish natijasida mahalliy hududlarda demokratiya mustahkamlanadi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining mustaqilligi ta'minlanadi va faolligi oshadi. Bu jarayonlar pirovard natijada iqtisodiy rivojlanishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Taniqli g'arb olimi Robert Ebel bu jarayonlar ahamiyatini quyidagicha ifodalaydi: "g'arb olami nomarkazlashtirishni ijtimoiy xizmat ko'rsatishning kam xarajatlik muqobil usulidir. Rivojlanayotgan mamlakatlar uni iqtisodiyot samarasini oshirish va boshqaruvni yaxshilash uchun amalga oshiradi. Sobiq ittifoq davlatlari uni bozor iqtisodiyoti va demokratiyaga o'tishdagi tabiiy bir qadam sifatida qabul qiladi. Lotin Amerikasi nomarkazlashtirishga demokratlashtirish vositasi sifatida yondashadi. Afrika esa uni milliy birlik sari yo'l, deb biladi" [6].

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga binoan nomarkazlashtirish markaziy hukumat va uning organlarini o'zlaridan quyiroqdagi boshqaruvga rejalashtirish, menejment, resurslardan foydalanish mas'ulligini uzatish (berish) ma'nosini beradi. Nomarkazlashtirish subsidiarlik (lotincha zaxira, yordamchi, ko'makchi) tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, unga muvofiq ravishda funksiyalar yoki vazifalar sotsial boshqaruvning eng quyi darajalariga o'tkaziladi.

Nomarkazlashtirishning uchta – siyosiy, ma'muriy va fiskal turlari, to'rtta – devolyutsiya, vakolatlarni uzatish, dekonsentratsiya va divestitsiya kabi shakllari mavjud. Siyosiy nomarkazlashtirish – siyosiy hokimiyatni mintaqaviy hokimiyat organlari – fuqarolar yig'inlaridan boshlab mahalliy hokimiyat organlarigacha bo'lgan darajalarga berish demakdir. Devolyusiya (inglizcha devolution vakolat yoki majburiyatni berish) – bu mahalliy hokimiyat organlarini mustaqil yoki avtonom bo'lishini ta'minlash maqsadida ularga mas'ullik, hokimiyat, daromadlar resurslari va manbalarini tasarruf etishni berilishi demakdir. Ma'muriy nomarkazlashtirish – turli ijtimoiy xizmatlarni muvofiqlashtirish va boshqarishga doir qarorlar qabul qilish, ularning resurslari va boshqaruv mas'ulligini quyi davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlariga berishni anglatadi. Dekonsentratsiya – markaziy hukumatning ba'zi vakolatlari va mas'ulligini iyerarxik bo'ysunishni saqlab qolgan holda mahalliy hokimiyat organlariga berish demakdir. Dekonsentratsiya boshqaruvni nomarkazlashtirish sari qo'yilgan dastlabki qadam hisoblanadi. Vakolatlarni uzatish – markazdagi hokimiyat va uning mas'ulligini mahalliy boshqaruv organlariga (doimo ham markaziy hokimiyatning mahalliy bo'linmasi bo'lishi shart bo'lmagan) qaytadan taqsimlab berishdir. Bunda mahalliy boshqaruv organlariga mas'ullik berilgani bilan ularning vertikal bo'ysunishi saqlanib qoladi. Fiskal nomarkazlashtirish (lotincha fiscalis davlatga qarashli; g'azna, soliq) – bu hokimiyatni nomarkazlashtirishning ancha to'liq va shaffof turi bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri byudjet amaliyoti bilan bog'liqdir. U yana resurslarni markazdan hududlarga berishni ham anglatadi.

Shu ma'noda bugun mamlakatimizda ro'y berayotgan siyosiy modernizatsiya jarayonlari o'z tarkibiga quyidagi muhim jihatlarni qamrab olmoqda:

– birinchidan, qonun ijodkorligi faoliyatini yanada rivojlantirish orqali, Konstitutsiyamiz normalariga tayangan holda demokratik islohotlarni va fuqarolik jamiyatini qaror toptirish ehtiyojlari va aniq maqsadlaridan kelib chiqib, yangi qonun va qonunchilik hujjatlarini qabul qilib borish ishlarini yanada rivojlantirish;

– ikkinchidan, qonunlarni hayotga joriy qilishning yanada samaraliroq mexanizmlarini ishlab chiqish;

– uchinchidan, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishning muhim omili va vositasi sifatida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tizimini rivojlantirish va shakllantirish.

Mazkur g'oyalarni bosqichma-bosqich va izchillik bilan jamiyatimiz hayotiga tatbiq etib borilayotganligi bois hozirgi vaqtga kelib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar

o‘z tarkibiga mohiyatan davrimizning eng zamonaviy mezonlariga mos keluvchi yangi asoslarini qamrab olmoqda. Buning zaminida yurtimiz mustaqil demokratik taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi va maqsadi bo‘lgan fuqarolik jamiyatini chuqur qaror toptirish uchun huquqiy-ijtimoiy zaminlar kuchli darajada mustahkamlandi, Konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari rivojlantirildi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan huquqiy va siyosiy islohotlardan kelib chiqqan holda rivojlangan G‘arb mamlakatlaridagi davlat hokimiyatini modernizatsiyalash tajribasini tahliliy va tanqidiy nuqtai nazardan o‘rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. G‘arb mamlakatlarida davlat hokimiyatini modernizatsiyalash jarayonini tugal voqelik sifatida baholab bo‘lmaydi. Chunki bu mamlakatlarda ham davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini ta’minlash borasida yangi konstruktiv g‘oyalarni ishlab chiqishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. AQSh, Germaniya, Shvetsiya kabi davlatlarning bu boradagi tajribasi boshqa mamlakatlar uchun muayyan siyosiy paradigma vazifasini o‘tashi mumkin.

Davlat va jamiyat boshqaruvini modernizatsiyalash borasida o‘tgan asrning 90-yillariga kelib Germaniya boshqaruvning byurokratik nazariyasi tamoyillari majmuiga asoslangan davlat ma’murchiligidan, samaradorlikni ta’minlovchi ma’murchilikka o‘tish jarayonlariga alohida e’tibor qaratdi. Xususan, davlat boshqaruvi tizimida shartnoma asosidagi menejmentni joriy etish orqali davlat siyosati va davlat ma’murchiligini farqlashni ta’minlash muhim vazifaga aylandi. Ijtimoiy xizmatlar sifatini sherikchilik asosida oshirish maqsadida Germaniyada davlat va xususiy sektor sherikchiligining huquqiy institutsional mexanizmlari joriy etildi.

Fransiyada 2000-yillarda davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish borasida maqsadli islohotlar amalga oshirildi. Fiskal nomarkazlashtirish amalga oshirilib, bundan buyon soliqlarning aksariyat qismi mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishga yo‘naltiriladigan bo‘ldi, ya’ni mahalliy organlarning mahalliy byudjet siyosatidagi roli keskin ravishda oshirildi. Bu esa, Fransiyaga hududlarga davlat tomonidan dotatsiya berish amaliyotiga deyarli barham berdi. Shuningdek, Fransiyada hududiy rejalashtirish asosida ta’lim, sog‘liqni saqlash obyektlari, transport va boshqa kommunikatsiyalarni rejalashtirish bo‘yicha boshqaruv qarorlari qabul qilish vakolatlarini hududiy hokimiyat organlari o‘tkazib berildi. Bu bilan Fransiyada davlat boshqaruvi tizimini axborotlashtirish sohasida tezkor rivojlanish imkoniyati vujudga keldi. 1999-yilda Fransiya hukumati qoshida davlat organlari faoliyatini baholash bo‘yicha Milliy kengash ta’sis etilib, davlat boshqaruvi tizimi faoliyati samaradorligini monitoring qilish ishlari yo‘lga qo‘yildi [7].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Fikrimizcha, boshqaruv sohasidagi nomarkazlashtirishning turli yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, mutaxassislar tomonidan keng ma’noda qo‘llaniladigan ilmiy yondashuv - davlat boshqaruvidagi muayyan funksiyalarni quyi tuzilmalarga-mahalliy institutlarga berishdan iboratdir. Biroq, bizningcha funksiyalarni mahalliy institutlarga o‘tkazishning o‘zigina nomarkazlashtirish jarayonlarining asosini tashkil etmaydi. Balki, boshqaruv tizimini nomarkazlashtirish jarayonida hokimiyat “funksiya”si va “vakolat”larini muvofiqlashtirish boshqaruv dinamikasi (o‘zgarish, rivojlanish, barqarorlik)ni ta’minlashga bog‘liqdir.

Xalqaro tajribadan ma’lumki, o‘tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar sharoitida nomarkazlashtirish butun jamiyatni tubdan isloh qilish va modernizatsiyalashning uzviy qismi hisoblanadi va albatta nomarkazlashtirish va davlat boshqaruvini takomillashtirish dasturi uzoq muddatli konseptual strategiyaga asoslanishi kerak bo‘ladi. Nomarkazlashtirishning bir nechta asosiy yo‘nalishi mavjud bo‘lib, birinchisi, ijroiya hokimiyatdan hokimiyatning boshqa tarmoqlariga o‘tish. Bu ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati o‘rtasida bir-birini tiyib turish va muvozanatni saqlashning ishonchli tizimini yaratishdan iborat. Ikkinchisi, markazdan hududlarga, ya’ni vakolatlar va funksiyalarni hokimiyatning turli darajalari o‘rtasida qayta taqsimlashdir. Uchinchisi, hukumatdan nodavlat iqtisodiy tuzilmalarga tamoyiliga, ya’ni davlatning iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashishini qisqartirish va cheklashga qaratilgan. To‘rtinchisi esa, hukumatdan fuqarolik jamiyatiga prinsipini, aniqrog‘i, “kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasini amalga oshirish bo‘lib, u ma’muriy islohotlar ustuvorligining kaliti deya baholanadi [8].

O‘zbekiston Respublikasida “Harakatlar strategiyasi” va “Taraqqiyot strategiyasi”ni amalga oshirish unda ko‘zda tutilgan vazifalarni bajarish maqsadida qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, qarorlari, hukumat qarorlari, ularni amalga oshirish natijalari jamiyatning barcha sohalarini rivojlanishiga ijobiy ta’sir qildi. Bu holat “Harakatlar strategiyasi”dagi vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirilganligini anglatadi. Bu jarayonda Prezidentning virtual

qabulxonasi va Xalq qabulxonalari islohotlar uchun zarur bo‘lgan muhim ishlarni amalga oshirildi. Zero, ularga kelib tushayotgan murojaat, ariza va takliflarni o‘rganish asosida muammolarni hal etish, rivojlanishga shart-sharoitlar yaratish ishlari bajarilmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, mamlakatda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayoni ustidan ham axborot texnologiyalari, ham xalqimizning murojaatlari vositasida monitoring nazorati amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, xalqimiz va davlat organlari tomonidan islohotlar jarayonini barcha tafsilotlari va tarmoqlarini chuqur nazorat qilish o‘z-o‘zidan fuqarolarning huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Modernizatsiyalash islohotlarining yana bir muhim jihati – bu XX asrning ikkinchi yarmida g‘arbda shakllangan fuqarolik jamiyati yanada takomillashdi va demokratlashdi. Bu holat fuqarolarning huquq va erkinliklarini namoyon qilishga tengi yo‘q shart-sharoitlar yaratdi.

Umuman olganda, tahlillarda g‘arb va Shimoliy Amerika davlatlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini modernizatsiyalash tajribasi, bu davlatlarda rivojlangan modernizatsiyalashga doir nazariy ishlanmalar, uslublar, unga doir turli modellar o‘tish davrini o‘z boshidan kechirayotgan davlatlardagi modernizatsiyalash jarayonlarini tadqiq etish uchun metodologiya vazifasini bajarishi mumkin ekanligi o‘z isbotini topdi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi (keyingi o‘rinlarda - Harakatlar strategiyasi) mujassamlashgan bo‘lib, ularning birinchisi davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘zida ifodaladi. Bu yo‘nalishning dastlabki vazifasi sifatida “davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini yanada kengaytirish”ga doir strategik vazifalar belgilab qo‘yildi.

Mazkur vazifalar mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish qaratildi. Harakatlar dasturida Oliy Majlisning hokimiyatlar bo‘linishi prinsipiga asosan boshqa hokimiyat tarmoqlari bilan muvozanatni va o‘zaro bir-birlarini tiyib turishni ta’minlash, uning davlat davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish maqsadlarida “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritishga haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish, loyihada Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputati va Senat a’zosi tomonidan parlament nazorati shakli sifatida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini o‘rganib, tahlil qilish hamda uning natijalari bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish, Oliy Majlisning tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili biznes ombudsmanni parlament nazorati subyekti sifatida belgilanishi ko‘rsatildi.

Strategik taraqqiyotimizning hozirgi pallasida mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish jarayonlari yanada kuchaytirilib, pirovard strategik maqsadimiz-ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lidagi harakatlar izchil ravishda amalga oshirilmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta’minlash maqsadida “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida davlat boshqaruvi organlari faoliyatini «fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish» tamoyili asosida transformatsiya qilish belgilangan.

Bunda, vazirlik va idoralarni tashkil etish va tugatishning aniq tartibi, ularni bir-biridan farqlovchi mezonlarni nazarda tutuvchi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqilib, amaldagi davlat boshqaruvi tizimini qayta ko‘rib chiqish, davlat boshqaruvi organlarining shtat birliklarini oshirishga cheklov o‘rnatishning tartibini hamda kadrlar va moddiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha aniq mezonlarni belgilash, davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish va mazkur jarayonga keng jamoatchilikni jalb qilish, vazirlik va idoralar faoliyatining barcha yo‘nalishlarini «Davlat — xalq xizmatchisi» tamoyili asosida fuqaroga xizmat qilishga yo‘naltirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, ixcham, professional, adolatli, yuqori natijadorlikka xizmat qiladigan davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish, vazirlik va idoralar rahbarlariga tashkiliy-huquqiy masalalarni o‘zlari mustaqil hal etishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, qabul qilinayotgan qarorlarning ular tomonidan

samarali ijro etilishini ta’minlash, davlat boshqaruvi organlarining hududiy masalalarni hal qilishdagi mas’uliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ularning strategik yo‘nalishlarini rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratish, vazirlik va idoralarda ish yuritish va ma’muriy boshqaruv jarayonlari sifatini oshirish belgilangan.

Davlat boshqaruvi tizimida ma’muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish, xususiy sektorga o‘tkaziladigan ayrim davlat funksiyalari sonini 3 barobarga oshirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish ishlarini jadallashtirish hamda davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash va hududlarni rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni hal qilishda barcha darajadagi davlat boshqaruvi organlari hududiy boshqarmalarining samarali ishini tashkil etish, Davlat xizmatlarini mobil ilovalar orqali ko‘rsatishni kengaytirish, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda shaxsni identifikatsiya qilishning Mobile ID tizimini joriy qilish, “Elektron hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali davlat organlari hamda xususiy tijorat tashkilotlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish asosida byurokratik jarayonlarni qisqartirish kabi asosiy vazifalar belgilangan.

Hozirgi davrga kelib “mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili bugungi kunda jahon bozorida konyunktura o‘zgarib, raqobat tobora kuchayib borayotganini har tomonlama hisobga olishni, shu asosda davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha strategik yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqish va amalga oshirishni taqozo etayotganligini” e’tiborga olgan holda, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo‘yicha eng muhim ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlarining qabul qilinishi mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi.

XULOSA

Dolzarb vazifa – markaziy idoralarni transformatsiya qilish orqali fuqarolarga xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruv tizimini yaratishdir. Ma’muriy boshqaruv tizimini takomillashtirish, hokimiyat funksiyalarini qayta taqsimlash, davlat apparatini keskin qisqartirish muhim masala bo‘lib qolmoqda. Davlat xizmatchilarini tanlashning raqobat tizimini joriy etish juda zarurdir.

O‘zbekiston huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yar ekan buning uchun avvalo davlat ijroiya hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini ta’minlash borasidagi siyosiy tizimni isloh etish, uni yanada liberallashtirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning **“Har bir fuqaro qabul qilayotgan qarorlarimiz real foyda berayotganini sezishi kerak”** degan fikrlari, zamonaviy rahbar kadrlar boshqaruv qarorlari samaradorligini belgilovchi zamonaviy mezonlarni bilishi, har bir fuqaroga qabul qilayotgan qarorlarni real foyda berayotganligini aniq misollar bilan ko‘rsata olishi, puxta o‘ylangan, har tomonlama to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni talab etadi.

Shu bois ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning mansabdor shaxslari qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi organlarga shikoyat qilish tartibini yanada takomillashtirishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim.

Birinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qaror qabul qilish jarayoniga manfaatdor tomonlar, keng jamoatchilikni jalb etish samarasiz boshqaruv qarorlari qabul qilinishi oldini oladi. Shuningdek, boshqaruv qarorlari ijrochilari va manfaatdor tomonlarni qaror qabul qilish jarayoniga ishtirok etishi qarorni barchaga tushunarli va optimal qabul qilish imkoniyatini beradi. Buning uchun har bir davlat tashkiloti organlarida qabul qilinayotgan qarorlar loyihasi muhokamasini yoritadigan tezkor axborot tizimi (veb-sahifa) yaratilishi ma’muriy adliya, ya’ni davlat idoralari va ularning mansabdor shaxslari qarorlari ustidan shikoyatlar sonini kamaytiradi.

Ikkinchidan, ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan qarorlar ustidan shikoyat qilishda boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash tizimini mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqaro, manfaatdor tomon ijro etuvchi hokimiyat

organlari va uning mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilingan qarorlar ustidan shikoyat qilish bilan birga qarorni samaradorligiga ham baho berishini ta’minlaydigan onlayn-so‘rovnoma tizimni joriy etish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 9-sentyabr, 180 (6874)-son. ("Khalk Sozi" newspaper, September 9, 2017, No. 180 (6874))
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 37-son, 979-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.01.2018 y. (http://lex.uz). (Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan, 2017, No. 37, Article 979; National database of legal documents, 19.01.2018. (http://lex.uz).)
3. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2017 y., 09/17/855/0149-son. (http://lex.uz). (National database of legal documents, 20.10.2017, No. 09/17/855/0149. (http://lex.uz))
4. https://lex.uz/docs/6324754
5. http://dba.uz/wp-content/uploads/2019/02/Maxmudov.pdf, A.Maxmudov, O‘zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyatini takomillashtirish, Avtoreferat, 2019 y., 17-18 betlar. (http://dba.uz/wp-content/uploads/2019/02/Makhmudov.pdf, A.Makhmudov, Improving control activities of local representative bodies in the Republic of Uzbekistan, Autoreferat, 2019, pp. 17-18.)
6. Robert D. Ebel, Serdan Yilmas. Izmerenie stepeni fiskalnoy detsentralizatsii i yee vliyanie na makroekonomicheskie pokazateli. //Materialы konferensii "Byudjetnыy federalizm i finansovoe upravlenie na mestnom urovne".-M.: RAKS, 2002.-S.14. (Robert D. Ebel, Sirdan Yilmas. The measurement of the degree of fiscal decentralization and its impact on macroeconomic indicators. //Materialy conference "Budget federalism and financial management at local level".-M.: RAKS, 2002.-S.14.)
7. M.K. Mirzaaxmedov “Davlat xizmatiga zamonaviy usullarni joriy etish texnologiyalari”: Science And Innovation International Scientific Journal Volume 1 Issue, 2022. B. 22. (M.K. Mirzaakhmedov "Technologies of introduction of modern methods to public service": Science And Innovation International Scientific Journal Volume 1 Issue, 2022. P. 22.)
8. Tojiyeva Z. Nomarkazlashtirish - islohotlarni chuqurlashtirish omili. // Biznes Daily «Birja» respublika iqtisodiy gazetasi, -T.: 2016. № 42 (2061) son. (Tojieva Z. Decentralization is a factor of deepening reforms. // Business Daily "Birja" republican economic newspaper, -T.: 2016. No. 42 (2061) issue.)

SIYOSAT

UDK: 17, 316.66.05 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a32

YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA HUQUQIY TA'LIM-TARBIYA VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARNING O'RNI

РОЛЬ ПРАВОВОГО ПРОСВЕЩЕНИЯ И СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ПОВЫШЕНИИ МОРАЛЬНОГО ДУХА МОЛОДЕЖИ

THE ROLE OF LEGAL EDUCATION AND THE MEDIA IN BOOSTING YOUTH MORALE

Ikramov Ravshan Aktamovich[1]

[1]**Ikramov Ravshan Aktamovich** – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti dekani, yu.f.n., dotsent.

Annotatsiya

Ushbu maqolada huquqiy ta'lim-tarbiya demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish va mustahkamlashning asosiy omili va garovi ekanligi ilmiy tahlil qilingan. Jumladan,aholining huquqiy bilimi, madaniyati va ma'naviyati qancha yuksak bo'lsa, huquqiy davlat ham shuncha kuchli bo'lishi haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jamiyatning turli jabhalariga kirib borishi jarayonida manaviy taxdidlarning salbiy oqibatlari va ularni oldini olishda ommaviy axborot vositalarni o'rni kabi masalalar ham yoritilgan.

Аннотация

В данной статье научно проанализировано, что правовое образование является главным фактором и залогом построения и укрепления демократического государства и гражданского общества. В частности, говорится, что чем выше правовые знания, культура и духовность населения, тем крепче будет правовое государство. Кроме того, освещаются такие вопросы, как негативные последствия моральных угроз и роль средств массовой информации в их предотвращении при проникновении информационно-коммуникационных технологий в различные сферы жизни общества.

Abstract

This article scientifically analyzes that legal education is the main factor and guarantee of building and strengthening a democratic state and civil society. In particular, it is said that the higher the legal knowledge, culture and spirituality of the population, the stronger the rule of law will be. In addition, issues such as the negative consequences of moral threats and the role of the media in preventing them when information and communication technologies penetrate into various spheres of society are highlighted.

Kalit so'zlar: *demokratik davlat, huquqiy ta'lim, fuqarolik jamiyati, qonun ustuvorligi, huquqiy savodxonlik, axborot texnologiyalari, "ommaviy madaniyat", televedenie, matbuot, internet, ma'naviyat, axborotlashgan jamiyat.*

Ключевые слова: *демократическое государство, правовое образование, гражданское общество, правовое государство, правовая грамотность, информационные технологии, «народная культура», телеведение, пресса, Интернет, духовность, информационное общество.*

Key words: *democratic state, legal education, civil society, rule of law, legal literacy, information technology, "folk culture", television, press, Internet, spirituality, information society.*

KIRISH

Huquqiy davlat sari qadam qo'yayotgan ekanmiz, talaba yoshlarimiz qonunlarni, davlat boshqaruvidagi ulkan o'zgarishlarni, inson, fuqarolarga berilgan erkinliklarni mukammal bilishlari kerak. Bu esa o'z navbatida fuqarolik jamiyatini qurishda, islohotlarni amalga oshirishda ulardan o'z huquqlarini, erkinliklarini, burchlarini bilibgina qolmasdan, balki ularni amalda qo'llay bilishlarini ham talab qiladi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish va mustahkamlash, demokratik islohotlarni **chuqurlashtirish,** uning qonuniy zaminlari, huquqiy asoslarini takomillashtirish, fuqaroning siyosiy-huquqiy faolligiga, onglilik, bilimdonlilik darajasiga uzviy aloqadorlikdadir. Bugungi kunga kelib yurtimizda huquqiy bilim va madaniyatga bo'lgan talab va extiyoj tobora ortib bormoqda. Darxaqiqat, aholining huquqiy bilimi, madaniyati va ma'naviyati qancha yuksak bo'lsa, huquqiy davlat ham shuncha kuchli bo'ladi, mustaqilligimiz mustahkamlanib, barqarorlashib boraveradi. Huquqiy davlatda yashovchi xar bir shaxs jamiyat belgilagan, davlat qabul qilgan qonunlarni, mavjud **xuquqiy** mezonlarni bilmasdan turib ma'naviy - axloqiy etuklikka erisha olmasligi haqidagi qoidalar xozirda o'z ifodasini topmoqda. Huquqiy bilim va madaniyat millat yetukligi va inson barkamolligining eng muhim omillaridan biridir. Huquqiy bilim va madaniyatni shakllantirish oiladan boshlansada, asosan ta'lim muassasalarida nazariy va amaliy jihatdan o'rgatiladi, rivojlantiriladi, barqarorlashtiriladi. «Ta'lim inson shaxsini to'la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy

erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmogi lozim**»** - deb xalqaro hujjatlarda bekorga e'tirof etilmagan. Inson huquqiy jihatdan qancha chuqur bilimdon, yuksak huquqiy madaniyatli va ma'naviyatli bo'lsa ma'rifiy mafkuraviy jihatdan shunchalik mukammal shakllangan bo'ladi. Ana shu mafkuraviy omilga bevosita bog'liq ravishda jamiyat taraqqiyoti tezlashadi, millat g'oyaviy-siyosiy jihatdan o'sib, etilib, takomillashib boradi. Yosh avlodning ilmiy - madaniy saviyasi, bilimdonlik darajasi, dunyoqarashi va tafakkuri o'zining rivojlanish holatiga qarab dunyoviy mezonlarga to'la javob beradigan bo'ladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Huquqiy davlatning asosiy belgisi barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi ta'minlanishidir. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlariday: Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu erda erkinlik bo'ladi. Bundan tashqari huquqiy madaniyat, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, xalqning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo'lishi masalalari ham muhim jihat hisoblanadi.

Huquqiy madaniyatni targ'ib qilishda esa ommaviy axborot vositalari o'rni beqiyosdir. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari (keyingi o'rinlarda OAV) insoniyat hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog'lanib ulgurgan. Globallashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan ayni paytda har qanday ommaviy axborot vositasining jahon axborot makonida o'z o'rniga ega bo'lishi, shu bilan bir qatorda taraqqiy topishi uning oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri sanaladi. Shu sababli bugungi dunyoni, uzoq-yaqinda yashayotgan odamlarning hayotini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayni paytda axborot texnologiyalari jamiyat taraqqiyotining turli sohalariga jadal kirib bormoqda. Har qanday jarayonning yaxshi va yomon tomonlari bo'lganidek, jamiyatni axborotlashtirishning ham ijobiy hamda salbiy jihatlari mavjud. Ma'lumki, axborot xurujining asosiy nishoni, obyekti yoshlar hisoblanadi. Ular birinchi navbatda yoshlarni o'z domiga tortishga qaratilgan. Bunday xatarlar, boshqa soha vakillari qatori, ommaviy axborot vositalari oldiga ham yangi-yangi talablarni qo'yib, jurnalistlar mas'uliyatini kuchaytirishni taqozo etadi. Binobarin, yoshlar muammolari bilan nafaqat, ommaviy axborot vositalari, balki butun bir tizim shug'ullanmoqda, lekin shunga qaramasdan, yoshlarning yovuz niyatlilar tuzog'iga tushib qolayotganligi, "ommaviy madaniyat" sari talpinayotganligi kishida haqli ravishda xavotir uyg'otmoqda.

Jahon axborot makonining globallashuvi ayni sharoitida inson ongi, qalbi, milliy mentaliteti, sog'lom e'tiqodi, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg'ularining kamol topishiga salbiy ta'sir kursatishi mumkin bo'lgan g'oyaviy-mafkuraviy, axborot taxdidlari ta'siri sezilmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida axborotga bo'lgan talab tobora kuchayib bormoqda. Vayronkor ruhdagi kuchlar turli vositalar bilan yoshlarning qiziquvchanligi, beqarorligidan foydalanib qolishga urinmoqda. Shu o'rinda, yoshlarda "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'naviyat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda". Muayyan natijaga erishish uchun ularda, avvalo, o'z-o'ziga ishonch hissini uyg'otish kerak. O'ziga ishongan kishida yaxshilikka intilish va yomonlikni rad etish, unga qarshi kurashish tuyg'usi paydo bo'ladi. Bu tuyg'u ularda sog'lom tafakkurni shakllantiradi. Insonlarga, davlatga, jamiyatga va kelajakka bo'lgan ulkan mehrni uyg'otadi. Pirovard natijada, yoshlarda mafkuraviy g'animlar bilan g'oyaviy kurashga kirishish ishtiyoqi shakllanadi.

Mavjud muammoning yana bir jihati – bu globallashuv sharoitida axborot xurujlarining yashin tezligidek kirib kelishidir. Tan olish kerak, bugun jahon yagona axborot maydoniga aylanib ulgurdi. Istaymizmi-yo'qmi, biz bu jarayonning faol ishtirokchilari sifatida har bir voqea-hodisani kuzatib borish imkoniga egamiz. Afsuski, axborot har doim ham ezgulikka, bunyodkor g'oyalarga xizmat qilayotgani yo'q. Ba'zan ana shu vosita muayyan vayronkor siyosiy kuchlar, jinoyatchilar, terrorchilar qo'lidagi qurolga aylanib, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbini nishonga olmoqdaki, undan butunlay himoyalanish imkoniyatlari tobora kamayib bormokda. Shuning uchun ham ko'plab mamlakatlar o'z manfaatlariga zid tarzdagi shu kabi axborotlarga nisbatan aholida immunitet hosil qilish maqsadida OAVning ta'sir kuchini to'g'ri o'zanga solish yo'lini tanlamoqdalar.

Shuning uchun ham axborot texnologiyalar orqali jamiyatimizga o'rnashib olayotgan "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan yoshlarni himoya qilish masalalari tobora dolzarb

ahamiyat kasb etmoqda. Ularning echimini topishda ijod ahli, xususan, ommaviy axborot vositalari xodimlari oldida turgan vazifalar ko‘lami keng. Negaki, milliy ruhimiz va tabiatimizga yot bo‘lgan ana shunday “madaniyat” namunalarini faqat tanqid va inkor etish yoki ta’qiqlash bilan biron natijaga erishib bo‘lmaydi. Bunday xatarlardan yoshlar ongini himoyalash, ma’naviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik uchun, avvalo, ezgu insoniy g‘oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan ijodiy mahsulotlar xalqimizga taqdim etilishi lozim. Shu ma’noda, OAV faoliyati muhim o‘rin tutadi. O‘z navbatida OAVning axborotni o‘quvchiga qiziqarli ko‘rinishda taqdim etish usullarini ham isloh qilish zarur. Negaki, yoshlar psixologiyasida ko‘proq tasvirga o‘chlik kuzatiladi. SHu nuqtai nazardan yoshlar auditoriyasiga mo‘ljallangan axborotlarda nozik did bilan ishlangan dizayn, mavzuga mos, kishi e’tiborini o‘ziga jalb etadigan surat va lavhalardan foydalanish talab etiladi. SHunday ekan, ommaviy axborot vositalari o‘z zimmalaridagi bu mas’uliyatli vazifani astoydil ado etishdan charchamasliklari kerak.

Xolis va haqiqiy axborotni tarqatish, axolining, birinchi navbatda, yoshlarning axborotga bo‘lgan extiyojini qondirish xar qachongidan ko‘ra dolzarb axamiyat kasb etmoqda. Axborot xuruji avj olgan bir paytda atrofda sodir bo‘layotgan vaziyat xakida xaqqoniy ma’lumotlarga ega bo‘lish, xar qanday noxolis axborotlar zamirida yot va buzg‘unchi g‘oyalar mavjudligini aholiga va avvalo yoshlarimizga tushuntirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ta’sirining beqiyosligi bizga malum.

Yoshlar davlatimiz istiqboli, umid yulduzidir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangilanishlar, islohotlar, bunyodkorliklardan ko‘zda tutilgan maqsadlar zamirida ham, avvalo, ularning manfaatlari mujassam. Yurtimizning turli hududlarida barpo etilayotgan muhtasham ta’lim muassasalari, musiqa maktablari, sport inshootlari va boshqa yaratilayotgan imkoniyatlarning barchasi farzandlarimizning jismonan sog‘lom, ma’naviy yuksak bo‘lib kamol topishiga qaratilgan. Bunga javoban yoshlarimiz erishayotgan yutuqlar ham oz emas. Biroq shu bilan birga, axborotlashtirish tizimidagi ulkan yangilik va o‘ziga xos “portlash effekti” yoshlarni o‘z atrofiga o‘rab ulgurmoqda. Eng zamonaviy OAV turi - internet-jurnalistikasi tobora rivojlanmoqda. Ma’lumotlarga qaraganda, mamlakatimiz hududi uchun mo‘ljallangan “uz” domeni tizimida minglab faol saytlar ro‘yxatdan o‘tgan. Xuddi shuningdek, global tarmoqda bevosita yoshlarning bilim doirasi, dunyoqarashining kengayishi, o‘zaro muloqot olib borishiga qaratilgan bir kabi qator saytlar faoliyat olib bormoqda. Shunday ekan, sohaning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash internet tizimida ish olib borishning muhim omildir.

Shunga qaramay, axborot xurujini tashkil etuvchi va tarqatuvchi asosiy maydon - bu internet tarmog‘i ekanligi bugun hech kimga sir emas. Tabiiyki, yoshlar katta avlodga nisbatan internet tarmog‘ining eng ko‘p foydalanuvchi qatlamidir. Lekin, zamonaviy jamiyatda esa asosiy tarmoq hisoblangan internetdan voz kechish yoki uni umuman inkor etish ham mumkin emas. OAV da G‘arb madaniyatiga taalluqli ba’zi ko‘rsatuv va saytlar ham borki, ular mutlaqo axloqqa zid. Bunday axborot yoshlarimiz xulqi va dunyoqarashiga salbiy ta’sir qilishi aniq. Ayni o‘rinda yana bir fikrni aytib o‘tish joiz, «oynai jahon» seriallar bilan to‘lib-toshgani, bizningcha, ijobiy hol emas. Chunki yoshlar asosiy vaqtini shu seriallarni ko‘rishga sarflashi ta’lim sifatiga ta’sir qilmay qolmaydi albatta. Darvoqe, gazeta va jurnal sahifalarida chop etilayotgan axborot hamda ma’lumotlarning mazmunan sayozligi ham yoshlarimiz tafakkuriga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham ma’naviy boy, barkamol shaxsni shakllantirish uchun ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tubdan o‘zgartirish, uning mazmunini boyitish, samarali usullarni izlab topish hamda hayotga tatbiq etish muhim. Bu yo‘lda barchamiz chuqur mas’uliyatni his etgan holda faqat oldinga intilishimiz lozim.

Hayotni ham ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilish qiyin bo‘lgan hozirgi sharoitda internet yoshlar uchun asosiy axborot manbaiga aylanmoqda. Afsuski, “dunyo o‘rgimchak to‘ri” deb ataluvchi Internet tarmog‘ida qo‘poruvchilik harakatlari ham amalga oshirilmoqda. Bunda qanday yo‘l tutgan ma’qul, degan savol tug‘ilishi tabiiy albatta. Mafkuraviy jarayonlar globallashib borayotgan bugungi kunda ohanrabo singari o‘ziga rom etib, chalg‘itayotgan axborot xurujlaridan himoyalanishning eng maqbul yo‘li - fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimizda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishdir. Internetni cheklab qo‘yish yoki axborot olishni ta’qiqlash bilan muammo hal bo‘lmaydi. Demak undan unumli foydalanish ayni maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirda har bir axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega ekan, ongi va dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlodning ma’naviy olami daxlsizligini asrash ko‘pchilikni o‘ylantirishi, bugungi kunning dolzarb masallaridan biridir. Yoshlarda g‘oyaviy-mafkuraviy

immunitetni shakllantirish jarayoni zamonning bugungi talablari xamda anik chora-tadbirlar asosida, respublika ta’lim tizimining barcha boskichlarida, ommaviy axborot vositalari faoliyati davomida muntazam va uzluksiz olib borilishi darkor. Zero yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalari o‘rnini xech qaysi kuch egallay olmaydi.

Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo‘lishi huquqiy davlatning o‘ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. Shu bilan birga, huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ro‘yobga chiqadi.

Yuqoridagi fikrlardan yaqqol ko‘rinib turibdiki, huquqiy davlat va huquqiy madaniyat – o‘zaro uzviy bog‘liq. Aholining huquqiy savodxonligini yildan-yilga oshirib borish huquqiy davlat qurishning eng muhim omilidir. Shuningdek, huquqiy ta’lim-tarbiya demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish va mustahkamlash uchun juda muhim. Chunki ta’lim - tarbiyani isloh, qilmasdan, huquqiy madaniyat, huquqiy ma’naviyat va ma’rifat yutuqlarini kishilar ongiga etkazmasdan turib komil insonni shakllantirib bo‘lmaydi.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun hayotga tatbiq etishda mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Hamkorlik ta’lim muassasalari orqali amalga oshirilmokda. Ularning ish rejalarida mahalliy sud, prokuratura va ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda olib boriladigan tadbirlar belgilangan. Bundan tashqari yoshlar tarbiyasi bo‘yicha qo‘shma ish rejalari ishlab chiqilib, shu asosda tadbirlar tashkil etilmoqda. Davlatimizda oliy o‘quv yurtlari va boshqa ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiya olib borilishi nazarda tutuvchi o‘quv dasturlari hamda normativ va o‘kuv-uslubiy mezonlar ishlab chiqilgan. Bularning barchasi yoshlarning huquqiy ongini shakllanishiga, ularni jamiyat talablariga, davlatning qonun-qoidalariga, milliy urf - odatlarimiz va kadriyatlarimizga chuqur xurmat-extiromli bo‘lishga o‘rgatish huquqiy ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biridir.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, O‘zbekistan Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda yuridik adabiyotlarni nashr etish ishlarini muvofiqlashtirish va chop etilayotgan adabiyotlarning sifatini yaxshilash bo‘yicha ishlar olib borilmokda. Chunki huquqiy ta’limning asosini yuridik adabiyotlar tashkil etadi.

Shularni xisobga olgan holda, jamiyat taraqqiyoti yo‘lida huquqiy ta’lim-tarbiyani yuksaltirish borasidagi quyidagi taklif-mulohazalarni bildirib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘lardi:

Birinchidan, ta’lim muassasalarini huquqshunos mutaxassislar bilan ta’minlashda ayrim muammolar mavjud. Bu masalani hal etish uchun oliy o‘kuv yurtlari bilan hamkorlikni kuchaytirish va ularni bitirgan mutaxassislarni muassasalarga jalb qilish mexanizmini shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, huquqiy ta’lim - tarbiyaga oid o‘kituvchilar uchun metodik ko‘llanmalar biroz kamroq. O‘qituvchilarning mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishlari uchun zarur metodik qo‘llanmalarni shu soxaning etuk olimlari, xuquqshunoslar va tajribali huquqshunos o‘kituvchilarni jalb qilgan xolda yaratish lozim.

Uchinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan ta’lim muassasalari hamkorligida o‘quvchilar, talabalar o‘rtasida huquqiy tarbiyaviy tadbirlar uyushtirilmokda. Lekin, bu tadbirlarda o‘quvchilarning, talabalarning **o‘z** mustaqil fikrlari va tashabbuslari bilan qatnashuviga kam e’tibor qaratilmokda.

To‘rtinchidan, gazeta va jurnallarda pedagoglar, o‘quvchilar va talabalarning huquqiy mavzularda maqolalar bilan chiqishlari etarli darajada deb bo‘lmaydi. SHuning uchun ilg‘or ish tajribasiga ega va iqtidorli yoshlarning huquqiy mavzularda gazeta va jurnallarda maqolalar bilan ishtirokini ko‘paytirish zarur.

Beshinchidan, hukuqiy ta’lim-tarbiya mavzularida huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda targ‘ibot guruxlari faoliyatini kuchaytirish zarur.

Demak biz faqatgina, xuquqiy ta’lim-tarbiya sohasidagi amalga oshirilgan yutuqlar bilan faxrlanib, g‘ururlanib qolmasdan, bu borada qiladigan ishlarimiz, bartaraf etishimiz kerak bo‘lgan kamchiliklar xam mavjudligini unutmasligimiz kerak. Darhaqiqat huquqiy ta’lim-tarbiya - fukarolik jamiyatining asosiy omili va yuksak garovidir. Huquqiy davlat barqarorligining huquqiy asosi –

jamiyatda fuqarolarning irodasiga, ularning huquq va erkinliklarining himoyalanganligiga asoslangan qonuniylik va huquqiy tartibotning mustahkamligidir.

XULOSA

Yuqorida bildirilgan fikrlarga xulosa tariqasida shuni ta'kidlash lozimki, mamlakat ravnaqi, uning ertangi porloq kelajagini yaratadigan yoshlar qalbiga milliy qadriyatlar, xalqimizning boy tarixi va ma'naviy merosi an'analarini chuqur singdirib, ularni vatanparvarlik, fidoiylik hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash har bir o'qituvchi, har bir ota-ona qolaversa, har bir fuqoraning burchi. Hayotning o'zi, taraqqiyot qonuniyatlari, erishilgan marralar, istiqboldagi maqsad va vazifalar huquqiy demokratik islohotlarni qat'iyat bilan davom ettirishni taqozo etmoqda. Biz hech qachon hech kimdan kam bo'lmaganmiz, kam emasmiz, kam bo'lmaymiz ham! Yoshlar, qaysi sohada bo'lmasin, zamonaviy bilimlarni egallashga, ilm cho'qqilarini zabt etishga, eng ilg'or texnika va texnologiyalarni jilovlashga bel bog'lar ekan, avvalo, ana shu da'vatga tayanib ish ko'rishi ayni muddaodir. Buning uchun imkoniyatlar etarli, faqat har birimiz bu ma'suliyatni chuqur his etib, kuch-g'ayratimizni safarbar etishimiz lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yiligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3775-sonli qarori.
3. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston", 2022.
4. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
5. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. -T.: «Muxarrir», 2009.
6. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T.: "Ma'naviyat", 2006.
7. Inson huquqlari bo'yicha butun jahon deklaratsiyasi. – T., 1948 yil, 10 dekabr.
8. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. T.1. – T.: IIV Akademiyasi, 1998.

SIYOSAT

UDK: 34:347.942 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a33**

NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATSIYA INSTITUTINING O‘RNI VA AHAMIYATI

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУТА МЕДИАЦИИ В РАЗРЕШЕНИИ СПОРОВ

ROLE AND IMPORTANCE OF THE INSTITUTE OF MEDIATION IN DISPUTE RESOLUTION

Maxkamov Dostonbek Shokir o‘g‘li[1]

[1]Maxkamov Dostonbek Shokir o‘g‘li — Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti, milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedra o‘qituvchisi.

Annotatsiya

Mediatsiya deganda vositachi sifatida tanilgan mustaqil, holis uchinchi shaxs muzokaralarni olib boradigan va har ikki tarafga vositachilik usullari yordamida nizoni hal qilishda yordam beradigan jarayon tushuniladi. Ushbu maqolada nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Аннотация

Медиация – это процесс, в котором независимая, беспристрастная третья сторона, известная как посредник, проводит переговоры и помогает обеим сторонам разрешить спор, используя методы посредничества. В данной статье освещается роль и значение института медиации в разрешении конфликтов.

Abstract

Mediation is a process in which an independent, impartial third party, known as a mediator, negotiates and helps both parties resolve a dispute using mediation techniques. This article highlights the role and importance of the institution of mediation in conflict resolution.

Kalit so‘zlar: *mediatsiya, vositachi, shaxs, muzokara, vositachilik,nizo, jarayon,nizolarnihaletish, mediatsiya institute, mediatsiyatexnologiyasi.*

Ключевые слова: *медиация, медиатор, человек, переговоры, медиация, спор, процесс, разрешение спора, институт медиации, технология медиации.*

Key words: *mediation, mediator, person, negotiations, mediation, dispute, process, dispute resolution, mediation institute, mediation technology.*

KIRISH

Mediatsiya deganda vositachi sifatida tanilgan mustaqil, holis uchinchi shaxs muzokaralarni olib boradigan va har ikki tarafga vositachilik usullari yordamida nizoni hal qilishda yordam beradigan jarayon tushuniladi. Biroq, ular nizoni mustaqil ravishda hal qilishlari mumkin emas. Mediatorning vazifasi nizolashayotgan tomonlarga ularning shaxsiy manfaatlari va muammolarini hisobga olgan holda kelishuvga erishishda yordam berish va ikkala tomonning ehtiyojlarini qondiradigan variantlar to‘plamini taqdim etishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qonunni rivojlantirish tarixida Vavilon, Qadimiy Gretsiya va Qadimiy Rimda mediatsiyani qo‘llash qayd etilgan. Rim huquqida Yustinian kodeksidan boshlab (miloddan avvalgi VI asr) bahs-munozaralarni hal qilish uchun vositachilik tan olingan. Mediatsiya texnologiyasi asosan savdoda qo ‘llanilgan. Rimliklar bahs-munozaralarni hal qiluvchi mutaxassislarni “medium” – “vositachi” so‘zi bilan ifodalashgan. Vositachilarga alohida hurmat bilan munosabatda bo ‘lishgan. Ularni dohiylar va ruhoniylar bilan bir qatorga qo‘yishgan. Zamonaviy tushunchalarda mediatsiya XX asrning ikkinchi yarmida AQSh, Avstraliya va Buyuk Britaniyada rivojlana boshlagan. Yevropada mediatorlar oilaviy munozaralarni hal qilishga jalb qilingan.

BMT ustavining 33-moddasida mediatsiya (vositachilik) nizolarni hal etish vositasi sifatida tan olingan. Shuningdek, Yevropa parlamenti va kengashining 2008-yilgi 52-direktivasida fuqarolik va tijorat nizolarida mediatsiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “taraflar boshlab bergan yoki sud tomonidan tayinlangan yoxud milliy qonunchilik bilan belgilanganidan qat’i nazar, ikki yoki undan ortiq nizolashuvchi taraflarning nizoni hal etish to‘g‘risida kelishuvga erishish maqsadida uchinchi shaxsga murojaat etish jarayonidir”.

Mediatsiyaning maqsadi – nizolashuvchi taraflarning nizolarini mustaqil, o‘zaro foydali shartlar asosida hal etish imkoniyatini topishga ko‘maklashishdan iborat bo‘lib, uning asosiy tamoyillariga ixtiyoriylik, taraflarning tengligi, betaraflik, mediatorning xolisligi, maxfiylik kabilar kiradi. Mediatsiya jarayoni muzokaralardan iborat bo‘lib, uning muvaffaqiyati nafaqat taraflarning kelishmovchiliklarini hal etishga bo‘lgan irodasi va intilishi, balki mediatorning tajribasi va mahoratiga ham bog‘liqdir. Umuman olganda, mediatsiya – bahs-munozaralarni uchinchi betaraf tomon ishtirokida tartibga solishga doir huquqiy texnologiya. Ushbu yo‘nalish o‘zining ma’lum bir shartlari va tamoyillariga ega. Masalan: tomonlarning teng huquqliligi; ixtiyoriylik; hurmat konfidensiallik; jarayonning shaffofliligi; mediatorningxolisligi.

Mediatsiya suddan tashqari tartibda, bahs-munozarani sud tartibida ko‘rib chiqish jarayonida, sudning qaror chiqarish uchun zalni tark etishidan oldin. Agar gap Hakamlik sudi haqida ketayotgan bo‘lsa, shakl xuddi shunday bo‘ladi. Mediatsiyada ishtirok etish fakti aybga iqror bo‘lishning isboti hisoblanmaydi. Mediatsiyaga nisbatan jamiyatda vujudga kelgan ehtiyoj o‘tgan asrda yangi kasb – mediatorlarning shakllanishiga olib kelgan. Mediatorlar dalillarni tekshirmaydi va taraflarning talablari qonuniyligiga baho bermaydi, aksincha, ularning asosiy vazifasi – taraflar o‘rtasida bir-birlarini tushunishga, taraflar uchun maqbul shartlarda muammoni hal etish imkoniyatlarini izlash va hal etishga ko‘maklashishdan iboratdir. Mediatsiya – majburiy kuchga ega bo‘lmagan, taraflarning ixtiyoriyligiga asoslangan konfidensial jarayon. U nizolashayotgan taraflarning ixtiyoriga ko‘ra tanlab olingan betaraf uchinchi shaxsning vositachiligida shartnomaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan nizoni o‘zaro murosa – yarashuv yo‘li bilan huquqiy asosda hal etish jarayonidir. Betaraf uchinchi shaxs – mediator.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan munosabatlar rivojlanib borar ekan, bozor munosabatlarining sub’ektlari o‘rtasida turli nizolar vujudga kelishi tabiiy holat sanaladi. Amaliyot ham oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqayotgan nizoli holatlar kam emasligini ko‘rsatmoqda. Bu kabi nizolashayotgan taraflar masalaning yechimini topish maqsadida an’anaviy yo‘lni tanlashga, ya’ni sudga murojaat qilishlariga to‘g‘ri keladi. Hozirgi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar huquqiy tizimida nizoni sudgacha olib bormasdan, muqobil yo‘l bilan hal qilishga qaratilgan mediatsiya yarashtiruv protsedurasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda ham chinakam bozor mexanizmlarining joriy qilinishi va amalga oshirilishi bozor munosabatlarining har bir sohasini tartibga soluvchi zarur huquqiy zamin yaratilishini talab qiladi. Avvalo mediatsiya tushunchasiga alohida to‘xtaladigan bo‘lsak, ko‘pchilikka tanish bo‘lib ulgurgan bu so‘z lotin tilidagi “mediare” so‘zidan olingan bo‘lib, “vositachilik qilish, kelishtirish maqsadida aralashish” degan ma’nolarni bildiradi. Mediatsiya - bu bir birini tushunish va nizoli holatni bartaraf etuvchi bitim tuzishga erishish maqsadida xolis shaxs - mediator (vositachi) ishtirokida taraflarning erkin muzokaraga kirish yo‘li bilan nizoni muqobil hal qilish usulidir. Yuqorida takidlab o‘tilganidek dastlab ilk marotaba Vavilon, Qadimiy Gretsiya va Qadimiy Rimda mediatsiyani qo‘llanilgani isbotlangan. Ayniqsa Rim huquqida Yustinian kodeksidan boshlab (miloddan avvalgi VI asr) bahs-munozaralarni hal qilish uchun vositachilik tan olingan. Vositachilarga yuqori hurmat bilan munosabatda bo‘lishgan. Ularni hattoki ruhoniylar bilan bir qatorga qo‘yishgan. Mediatsiya texnologiyasi asosan savdoda qo‘llanilgan. Endilikda mediatsiya instituti – ko‘plab davlatlar huquqiy voqeligining ajralmas qismi hisoblanadi. Zamonaviy tushunchalarda mediatsiya XX asrning ikkinchi yarmida AQSh, Avstraliya va Buyuk Britaniyada rivojlana boshlagan.

Mediatsiyaning yanada rivojlanishi va dunyo bo‘ylab keng yoyilishiga hozirgi Amerika modeli ulkan ta’sir ko‘rsatdi. Jahonning aksariyat davlatlarida nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan biri mediatsiya qonun bilan tartibga solingan bo‘lib, nizolarning asosiy qismi sudga murojaat etilmasdan muzokaralar yo‘li bilan hal qilib kelinmoqda. nizolashuvchi shaxslar mediatorni o‘zlari tanlaydilar va mediatsiya jarayoniga ixtiyoriy kirishadilar. Sudda taraflar sudyani tanlay olmaydi, sudga esa faqat yashash joylari bo‘yicha murojaat qilishga majburlar; agar sudning vazifasi taraflarning qaysi biri haq yoki aybdorligini aniqlashdan iborat bo‘lsa, mediatsiya taraflarning kelishuviga erishishga hamda mediatorning yordami bilan nizoni hal qilishning turli hil yechimlarini muhokama qilishga qaratilgan; sudda nizolashayotgan taraflar sud qaroridan norozi bo‘lgan taqdirlarida ham uni bajarishga majburlar.

Mediatsiyada barcha qarorlar faqat taraflarning o‘zaro kelishuvi asosida qabul qilinadi va ular ixtiyoriy ravishda uni bajarish majburiyatini oladilar; mediatsiya sud jarayoniga nisbatan maxfiy tarzda o‘tkaziladi va har bir taraf istagan vaqtida uni davom ettirishdan bosh tortishi mumkin, sudda

esa aksincha, muzokaralarni istalgan vaqtda tugatib bo‘lmaydi, jarayon ham oshkora bo‘ladi; sudlarning ish hajmi shu darajada yuqoriki, ishlarni ko‘rib chiqish bir necha oy va undan ortiq vaqtga cho‘zilib ketadi, mediatsiya jarayoni esa juda qisqa muddatda ham yakunlanishi mumkin; mediatsiya sud jarayoniga qaraganda har tomonlama tejamli bo‘ladi. Mediatsiya sud jarayonining muqobil usuli bo‘lib, sudga nisbatan qator farqlarga ega: mediatsiyada taraflar istaganlaricha barcha masalalarni bemalol muhokama qiladilar; sud jarayoni protsessual qonunlar doirasida o‘tkaziladi, qaror faqat qonunga asoslanib qabul qilinadi, mediatsiyada esa qarorni taraflarning o‘zlari qabul qiladilar. Mediatsiya nazariy jihatdan nizolarni hal qilishning arzon va tezkor shakli hamda sud jarayoniga norasmiy alternativ hisoblanadi.

Mediatsiya nizolarni hal qilishning boshqa usullari, xususan nizolarni sud tartibida hal qilishdan o‘zining bir qator afzalliklari bilan ajralib turadi. Jumladan, nizolarni hal qilishning muqobil protsedurasi sifatida, mojaro ishtirokchilariga nizolarni hal qilish variantlarini mustaqil ravishda belgilash huquqini berish kabi afzalliklarga ega. Shu bilan birga, nizo tomonlari moliyaviy mezonlari, raqobatbardoshligi, bozor narxlari va ishbilarmonlik obro‘sini hisobga olgan holda ularning tijorat ehtiyojlaridan kelib chiqib manfaatli yechim to‘g‘risida kelisha olishlari mumkin. Mediator va sudyalar o‘rtasidagi farq tomonlarning da’volarini va ularning huquqlarini belgilovchi omillarni tahlil qilish uchun qo‘llanilishi kerak bo‘lgan muayyan standartlar yoki qoidalarning yo‘qligidadir.

Mediatsiyaning yana bir afzalligi uning maxfiyligi, shuningdek vositachining tomonlarga o‘zlariga mos keladigan har qanday yechimni ishlab chiqishda yordam berish huquqidir. Mediatsiya shartnomasi nizoli tomonlarning o‘zaro roziligi bilan tuziladi. Nizoni shu tarzda hal qilish to‘g‘risidagi band nizoni muzokaralar jarayonida hal qilishning eng qulay va sodda variantidir. Mediatsiyadan foydalangan holda muzokaralar nizo yuzaga kelgan bosqichda, shuningdek nizoli tomonlar nizolarni hal qilishning boshqa jarayonlariga, shu jumladan sud protseduralariga kirganda ham foydalanishlari mumkin. Faoliyat ko‘rsatkichlariga ko‘ra, nizolarni mediatsiya usuli bilan hal qilish nizoning barcha bosqichlarida muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Intellektual mulk to‘g‘risidagi nizolarda vositachilik qilish, ayniqsa tomonlarning nizoni o‘zi yoki nizoda ko‘rsatilgan faktlarni yoki intellektual mulk huquqlarini sir saqlashi yoki o‘ta muhim bo‘lgan taqdirda dolzarb bo‘ladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bugungi kunda yurtimizda, asosan, mediatsiya, hakamlik sudlari va apellatsiya kengashi sudgacha nizolarni hal qilish vositasi bo‘lib bormoqda. Mediatsiya boshqa rivojlangan davlatlarning huquqiy tizimlarida, masalan, Angliya, Avstraliya, AQSh, Kanada va boshqalarda azaldan ma’lum bo‘lib kelgan. Rossiya Federatsiyasida XXI asrdan boshlab ommalasha boshladi. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasida ham mediatsiya instituti kirib keldi. Huquqshunos olimlarning fikriga ko‘ra, mediatsiya, zamonaviy sharoitlarda keng tarqalgan va nizolarni hal qilish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. Bizning huquqiy tizimimizda mediatsiya instituti Mediatsiya to ‘g‘risidagi qonun qabul qilinishi bilan tartibga solinadi. Mazkur qonun 2018-yil 3-iyulda qabul qilindi. “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonunning maqsadi nizolarni tartibga solishning muqobil usullarini rivojlantirish uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratish, sud tizimiga tushadigan ish hajmini kamaytirishdan iborat.

“Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun 2019-yilning 1-yanvaridan amal qila boshladi. Shu munosabat bilan jamiyatimiz ijtimoiy ongiga “mediatsiya” voqeligining, yangi institutining tub mohiyatini singdirish, uning ahamiyatini, qadr – qimmatini hamda afzalliklarini keng jamoatchilikka tushuntirish, izohlab berish o‘ta dolzarb masalaga aylandi. Ushbu dolzarblikning boisi, bir tomondan, dunyo miqyosida ko ‘plab xorijiy davlatlar amaliyotida mediatsiyaning yuqori samara bilan qo‘llanilayotganligi, ikkinchi tomondan, xalqimizning tarixan shakllangan, biroq hozirda anchayin unitilayozgan “murosai madora” degan qadriyati hamda an’analarini qayta jonlantirish ehtiyoji kun tartibiga chiqqanligidadir. Shunga ko‘ra, mediatsiya institutining nazariy – huquqiy asoslarini, yuridik hamda ijtimoiy – ma’naviy tabiatini, mazmunini, prinsiplarini, strukturasini, o‘ziga xos xususiyatlari hamda belgilarini, tasnifi(modellari)ni kompleks mushohada etish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu qonun bilan fuqarolik huquqiy munosabatlar, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolar, shuningdek yakka mehnat nizolari va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, taraflarning mediatsiya qo‘llash bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan,

taraflarning xohish-istagi asosida, suddan tashqari tartibda, nizoni sud tartibida ko‘rish jarayonida, sud hujjatlarini qabul qilish uchun sud alohida boshqa xonaga kirguniga qadar, shuningdek sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida mediatsiya tartibini qo‘llash mumkinligi belgilandi. Mediatsiya jamoat manfaatlariga va mediatsiyada ishtirok etmayotgan uchinchi shaxslarning huquq hamda qonuniy manfaatlariga daxl qiladigan yoki daxl etishi mumkin bo‘lgan nizolarga nisbatan tatbiq qilinmaydi.

XULOSA

Umuman olganda, mediatsiya nizolarni hal qilishning boshqa usullari, xususan nizolarni sud tartibida hal qilishdan o‘zining bir qator afzalliklari bilan ajralib turadi. Birinchidan, nizolarni mediatsiya vositasida hal qilish sud tartibiga nisbatan ancha qisqa muddatlarda amalga oshiriladi. “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonunning 23-moddasida mediator va taraflar mediatsiya tartib-taomili o‘ttiz kundan ortiq bo‘lmagan muddatda tugallanishi uchun barcha mumkin bo‘lgan choralarni ko‘rishi kerakligi, zarur bo‘lgan taqdirda, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish muddati taraflarning o‘zaro roziligi bilan o‘ttiz kungacha uzaytirilishi mumkinligi belgilangan. Ikkinchidan, mediatsiya tartib-taomillari qo‘llanilganda ishga taalluqli barcha ma’lumotlar mutlaqo sir tutiladi. O‘rtadagi nizo va unga oid faktlardan faqatgina taraflar va ularning vakillari hamda mediator xabardor bo‘lishi mumkin va ularga qonun bilan bu axborotlarni oshkor qilmaslik majburiyati yuklatiladi. Maxfiylik prinsipi ayniqsa oilaviy nizolar hamda tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarda muhim ahamiyatga yega. Nizoni mediatsiya usulida hal qilish bunday salbiy oqibatlardan ishonchli himoya bo‘lib xizmat qiladi. Uchinchidan, mediatsiya vositasida hal qilinadigan nizolarda har ikkala taraf uchun ham maqbul kelishuvga erishiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to ‘g‘risidagi” Qonuni, 03.07.2018 yildagi O ‘RQ-482-son/

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to ‘g‘risida"gi 2020 yil 17 iyundagi PQ-4754-son qarori (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020 y., 07/20/4754/0771-son)

4. https://lex.uz/docs/-111189 4. https://lex.uz/docs/-3517337.

5. https://www.lexology.com/library/detail.aspx

6. Kreyg r. Smit, vositachilik: Jarayon va muammolar, Sanoat aloqalari markazi, 1998 yil

7. O‘RQ-482-сон 03.07.2018. Mediatsiya to‘g‘risida – lex.uz

https://www.adrodrinternational.com/Impact-of-mediation-on-housing-and-property-cases

https://www.lawhelp.org/dc/resource/settlement-and-mediation-in-landlord-and-tena

SIYOSAT

UDK: 32;316.7;349.3 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a34**

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI SIYOSIY ONGI VA MADANIYATINING TRANSFORMATSIYALASHISHINI FUTUROLOGIK ISTIQBOLLARI

ФУТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ПОЛИТИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

FUTUROLOGICAL PROSPECTS FOR THE TRANSFORMATION OF THE POLITICAL CONSCIOUSNESS AND CULTURE OF YOUNG PEOPLE OF NEW UZBEKISTAN

Safarov Muxlis Maxmudovich

Safarov Muxlis Maxmudovich – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti 23.00.03. – “Siyosiy madaniyat va mafkura” ixtisosligi tayanch doktoranti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada yangi O‘zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatidagi transformatsiyalashish jarayoni ijtimoiy moslashuv omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishining futurologik istiqbolini tahlil qilishga doir tadqiqotlardan olingan empirik ma’lumotlarga asoslanib, zamonaviy o‘zbek yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishining uslubiy yondashuvlari hamda asosiy tendensiyalari muhokama qilinadi.

Аннотация

В данной статье рассматривается процесс трансформации молодежи Нового Узбекистана в их политическом сознании и культуре как фактор социальной адаптации. Также, основываясь на эмпирических данных исследований по анализу трансформационной перспективы молодежного политического сознания и культуры, обсуждаются методологические подходы и основные тенденции трансформационного характера политического сознания и культуры современной узбекской молодежи.

Abstract

The article considers the process of transformation of young people of New Uzbekistan in their political consciousness and culture as a factor of social adaptation. Also, based on empirical data from research on the analysis of the transformational perspective of youth political consciousness and culture, methodological approaches and main trends of the transformational nature of the political consciousness and culture of modern Uzbek Youth are discussed.

Kalit so‘zlar: *siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy ong va madaniyat transformatsiyasi, siyosiy me’yor, siyosiy qadriyat, yoshlarning ijtimoiy moslashuvi, siyosiy tashkilotlar, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari.*

Ключевые слова: *политическое сознание, политическая культура, политическое сознание и культурная трансформация, политическая норма, политическая ценность, социальная адаптация молодежи, политические организации, политические партии, общественные организации.*

Key words: *political consciousness, political culture, political consciousness and cultural transformation, political norm, political value, social adaptation of youth, political organizations, political parties, public organizations.*

KIRISH

Jahon miqyosida davom etayotgan globallashuv jarayonlari nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga, balki siyosiy, axloqiy munosabatlarga, ong va tafakkurga ham jiddiy ta’sirini o‘tkazayotganligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatiga shu darajada katta ta’sirini ularning transformatsiyaga uchrayotgan siyosiy jarayonlarga bo‘lgan qarashlari hamda munosabatlaridan ham bilsa bo‘ladi. Ko‘pchilik soha mutaxassislari oxirgi vaqtlarda transformatsiyalashish jarayonini aksariyat hollarda globallashuv hodisasigagina bog‘layotganligi bizning fikrimizcha, muammoga anchayin soddaroq qarashdan boshqa narsa emas. Bizningcha, yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishi faqatgina aynan globallashuv hodisasi bilangina izohlash mumkin emas, nega deganda bu jarayon turli darajada sodir bo‘ladigan qadriyatlar tizimining transformatsiyalashishi bilan ham bog‘liqligini unutmaslik lozim. Shu nuqtai nazardan yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashish xususiyatlarini jamiyatda sodir bo‘ladigan islohotlarni chuqur o‘rganish orqali ham tadqiq etish mumkin. Bu esa albatta, mazkur mavzuning naqadar dolzarb ahamiyat kasb etishi bilan birga yangicha qarash va tadqiqotlarni talab etadi.

Bugungi yangi O‘zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashish jarayonini chuqur o‘rganib borish hamda shu asosda ilmiy asoslangan tahlillarni taqdim etib borish soha olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir desak, hech ham mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Zero, bu borada davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ham o‘z ma’ruzalarida “Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha biz boshlagan ulkan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda hal qiluvchi rol o‘ynaydigan asosiy kuch aynan yoshlarimizdir” [1;186] deb alohida ta’kidlaydi. Ayni paytda pirovard maqsadimiz ham yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashish jarayoniga ta’sir etuvchi omillarni aniqlab, ularni davlat va jamiyatning umumkelajak maqsadlariga yo‘naltirishdan iboratdir. Darhaqiqat jamiyatdagi mavjud ijobiy islohotlar yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi hamda ayni vaqtda bu uning asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi, deganidir. Yana ham tushunarliroq qilib aytganda, yangi O‘zbekiston jamiyatini isloh qilishda yoshlarning o‘rni ko‘p jihatdan ularning siyosiy ongida qanday qadriyatlar shakllanishiga bog‘liq, deganidir. Jamiyatda yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini jarayon sifatida o‘rganayotganda, mazkur transformatsiyalashishning xususiyatlarini hamda ularni yoshlarning turli toifalari tomonidan idrok etilishini kognitiv darajada aks ettiruvchi omil sifatida ko‘rib chiqish kerak. Bu ayni vaqtdagi dolzarb masalalardan biridir. Siyosiy ong va madaniyatning transformatsiyalashish nafaqat jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy muhitga, balki turli xil guruh sifatida yoshlarning mentalitetiga ta’sirini belgilaydi, qolaversa, bu shubhasiz yangi O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy islohotlarning eng muhim shartlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi bunday islohotlar davlat siyosiy tizimining maqsadlari va tamoyillarida aks etishi bilan birga asosan uning yo‘nalishlarini ham oldindan belgilab beradi. Bu kabi jiddiy islohotlar yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining ichki tuzilishiga, uning elementlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, buni bugungi kunga kelib yoshlarni ijtimoiy faoliyatga va siyosiy hayotga jalb qilish hamda ularning ijtimoiy-siyosiy ongini transformatsiyalashish mexanizmlari o‘zgarib borayotganligida ko‘rishimiz mumkin [2;142].

Mamlakatimizda so‘ngi yillardagi siyosiy tizimning yangilanishi sharoitida turli xil ijtimoiy guruhlarni, shu jumladan, yoshlarni siyosiy munosabatlar sohasiga olib kirish imkoniyatlari ancha kengaydi. Bu esa o‘z navbatida yangicha islohotlar sharoitida ijtimoiy-siyosiy sohada yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashish jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Yangi O‘zbekiston jamiyatining barcha sohalarida davom etayotgan islohotlar hamda ushbu jarayolarning yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishida aks etishi futurologik istiqbolni tahlil qilishga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini hozirgi bosqichi yangi O‘zbekiston jamiyatini barpo etish bilan bog‘liq barqaror rivojlanish istiqbollari bilan tavsiflanadi. Sohaga doir adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotlar yoshlarni siyosiy hayotga qo‘shilishi va ularni siyosiy ongini transformatsiyalashishining ijtimoiy-madaniy mexanizmlarini o‘zgarib borish jarayonini tahlil etishga bag‘ishlanganligini qayd etib o‘tish lozim [3;351]. Bu yo‘nalishda ko‘proq g‘arb olimlari ish olib borganligini kuzatishimiz mumkin. Bunga MDH mamlakatlarida A.I.Kovaleva, V.A.Lukov, O.V.Sorokin, P.Shtompka, A.Bandura, J.T.Тощenko, V.F.Yulov, Ye.D.Pavlova, V.I.Chuprov, Yu.A.Zubok, I.A.Щerbo, V.G.Ignatov, A.N.Nifanov, P.N.Bespalenko kabi olim va tadqiqotchilarning asarlarini kiritishimiz mumkin. Mazkur olimlar o‘z asarlarida biz ko‘rib chiqayotgan mavzu atrofidagi bahsli masalalarni kollektivizm hamda ma’lum bir darajada marksizm nuqtai nazaridan tahlil qilganligini ko‘rishimiz mumkin. AQSh va Yevropada esa R.S.Erikson, G.S.Shrigt, J.P.Makliver, E.Giddens, T.O.Parsons, R.K.Merton kabi soha olimlari asarlarida yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishi chuqur tahlil qilingan. Lekin shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, mazkur olim va tadqiqotchilarning asarlarida siyosiy ong va madaniyatga nisbatan munosabatlar MDH olimlaridan farqli ravishda asosan g‘arb va nasroniy dunyosi tafakkuri, ya’ni ko‘proq individualizm mezonlari asosida talqin qilingan. Bunga misol tariqasida Sorokinning qarashlarini olishimiz mumkin. U “mavjud jamiyatdagi har qanday ijobiy va salbiy transformatsiyalashish shaxslar va guruhlarning ongida aks etadi” [4;34] degan qarashni ilgari suradi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu qarash sobiq ittifoqda shakllangan marksistik kollektivizmning mevasidir. Erikson va Shrigtning asarlarida esa biz tadqiq etayotgan mavzu asosan individualistik tafakkur mezonlari asosida baholanib muammoga yechim izlangan.

Mamlakatimizda ham ushbu mavzu atrofida turli tadqiqotlar olib borilganligini hamda bir qator adabiyotlar nashr etilganligini e'tirof etishimiz lozim. Bunga I.Ergashev, T.Jo‘raev, M.Qirg‘izboyev, J.Mavlonov kabi olimlarning asarlarini kiritish mumkin. Mazkur olimlar o‘z asarlarida biz tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqayotgan mavzuimizning ma'lum bir jihatlarini tahlil qilishgan. Bizning olim va tadqiqotchilar o‘z asarlarida yuqorida ko‘rib o‘tganimiz MDH va g‘arb olimlaridan farqli ravishda o‘z qarashlarini sharqona tafakkur uslubi mezonlari asosida taqdim etishgan. Ushbu asarlarda yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishi bilan bog‘liq masalalarga konsensualistik yoki muammoga gormonik tarzda yechim izlash ustuvorlik qiladi. Buni ma'lum darajada barcha sohalarda, shu jumladan siyosiy sohada aks ettirilgan tizimli qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda sharqda qadimdan shakllangan siyosiy amaliyot natijasidir, deyish mumkin. Shu ma'noda, yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini turli tafakkur uslublari asosida tahlil qilingan asarlarning o‘ziga xos xususiyati va o‘zaro mushtarak jihatlari shundaki, yoshlar siyosiy ongi va madaniyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatuvchi omil bo‘lgan jamiyatdagi zo‘ravonlik g‘oyaviy va qadriyatlar qarama-qarshiligini bartaraf etishga bo‘lgan munosabatning aynanligidir. Umuman olganda yuqorida qayd etib o‘tilgan olimlarning asarlarida jamiyatda siyosiy ong va madaniyat darajasini yuksalishida yoshlarning alohida rolini hisobga olish zarurligini inobatga olgan holda, ularning siyosiy ongi va madaniyatida shakllanadigan qadriyatlar shakli va munosabatlari har bir jamiyatning siyosiy tizimining yanada rivojlanishini belgilab berishi to‘g‘risidagi ko‘plab qimmatli fikrlar ilgari surilgan.

Ma'lumki, har qanday ilmiy tahlil o‘ziga xos tadqiqot metodologiyasiga tayanadi. Busiz bo‘lishi mumkin emas. Biz tadqiq qilayotgan yangi O‘zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqboli masalasiga yechim izlashda ham bir qancha ilmiy uslub va yondashuvlarga tayanilganligini aytib o‘tish lozim. Bu masalaga munosabatlar dialektikasi, sinergetik, konfliktologik va konsensualistik nuqtai nazardan yondashish muammoga yechim izlashda muhim ahamiyat kasb etishini aytib o‘tish kerak bo‘ladi. Negaki, yangi O‘zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbolini ilmiy o‘rganishning nihoyatda murakkabligi shundaki, bir tomondan, u avvalgi bosqichning to‘plangan ziddiyatlarini aks ettiradi, ikkinchidan - paydo bo‘lgan, ammo to‘liq shakllanmagan va tubdan qarama-qarshi bo‘lgan yangi ijtimoiy-madaniy islohotlarni o‘zida namoyon etadi. Bu haqda Shtompka shunday deydi: “ijtimoiy noaniqlik muammosi va uning yoshlar siyosiy ongiga ta'siri hali ham fanda yetarlicha o‘rganilmagan” [5;664]. Demak, Shtompka fikridan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, zamonaviy nazariy ishlanmalar hamda empirik tadqiqotlar aniqlikdan noaniqlikka o‘tish davrida siyosiy tartib asoslarini tubdan o‘zgartirish sharoitida ong va xulq-atvor shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlarini asoslashni o‘z ichiga oladi, aksincha emas. Bizning izlanishlarimiz natijasiga ko‘ra ham, jamiyatning aniqroq holatiga o‘tishning belgilangan jarayonida yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollarini o‘rganish yangi qonuniyatlar va tendensiyalarni ochib beradi. Shuning uchun aynan yangi O‘zbekiston jamiyatini barpo etish sharoitida yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashish mexanizmlarini nazariy jihatdan ishlab chiqish, siyosiy ong va madaniyat xususiyatlarini hamda uni ijtimoiy-madaniy tartibga solish usullarini asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yangi O‘zbekiston rivojlanishidagi barqarorlik tendensiyaning paydo bo‘lishi siyosiy tizimning turli ijtimoiy guruhlar bilan o‘zaro ta'sirining tabiatida aks etadi. Bunda esa yoshlar bilan munosabatlar o‘zgacha shaklda rivojlanadi. Bu bir tomondan, yoshlarning o‘zlarining guruh sifatidagi xususiyatlariga, ikkinchi tomondan, siyosiy maqsad va vazifalarga, shuningdek, siyosiy jarayonlar rivojlanishining haqiqiy tendensiyalariga bog‘liq. Bu xususiyatlar ham jamoat institutlari tomonidan yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishiga ta'sirida, ham o‘zini o‘zi tashkil etishning yangi shakllari paydo bo‘lishida aks etadi. Biroq, jamoat va yoshlar tuzilmalarining o‘zaro ta'sirida ko‘plab qarama-qarshiliklar paydo bo‘ladi. Ularning aksariyati turli xil yoshlar guruhlarining turli ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatlari, siyosiy qarashlari bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-madaniy omillarga asoslangan bo‘lib, bu ularning o‘zini o‘zi boshqarish usullarida namoyon bo‘ladi. Ba'zi soha olimlarining fikricha, jamoat institutlari tomonidan yoshlarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga yetarlicha e'tibor berilmasligi ularning siyosiy ongini transformatsiyalashish mexanizmlari va tendensiyalarida aks etmasligi mumkin emas [6;106]. Bizning fikrimizcha, bu

shuni anglatadiki, ba'zi bir siyosiy g'oyalar bilan identifikatsiya qilish, boshqalarni rad etish, uchinchisiga befarq munosabatda bo'lish, yosh avlodni tegishli g'oyalar, me'yorlar, qadriyatlarni takrorlashga, muayyan siyosiy manfaatlarni amalga oshirishga, jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy institutlarga o'z munosabatlarini transformatsiyalashishiga hissa qo'shadi. Bu jarayonda yoshlar ongida mavjud ijtimoiy mexanizmlar ta'siri ostida nafaqat siyosatning mohiyati, balki ularning siyosiy ongi va madaniyatining asosini tashkil etuvchi ushbu sohadagi o'rni to'g'risida ham maxsus qarashlar, taxminlar, g'oyalar va e'tiqodlar tizimi shakllanadi.

Yangi O'zbekiston yoshlarining zamonaviy avlodining o'ziga xos xususiyati - bu uning siyosiy ongi va madaniyatining differensiatsiyasida aks etgan ko'plab asoslarga ko'ra farqlanishidir. Bugungi kunda yoshlarning siyosiy manfaatlari ilmiy klassifikatsiyasi deyarli tuzilmagan, avlodlar mafkurasi yo'q, yoshlarning aksariyati o'zlarini siyosiy manipulyatsiya obyektlari orasidan topib, siyosiy hayotning har qanday shaklidan uzoqlashadi, bu siyosiy tuzilmalarga qarama-qarshi munosabatni, siyosiy munosabatlarning nigilistik-instrumental vektorini va o'rnatilgan moslashuvning intuitiv izlanishini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, bu holat jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayoti asoslarini transformatsiyalashishi davrida yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishga yo'naltirilgan va o'zini o'zi boshqarish usullari o'rtasidagi ziddiyatdan kelib chiqadi. Bizningcha, uni ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga faol qo'shilishining dolzarb ehtiyoji va jamoat institutlarining yoshlar muhitida o'zini o'zi boshqarishning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga yetarlicha e'tibor bermasligidan izlash kerak bo'ladi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, yoshlarning siyosiy munosabatlar sohasiga, avvalo ong darajasida integratsiyalashuvining usullari, shakllari va o'ziga xos xususiyatlari noaniqligicha qolmoqda[7;320]. Shu ma'noda, yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashish muammosi yangi O'zbekistonni barpo etishning hozirgi bosqichida eng dolzarb masalalardan biridir. So'nggi yillarda yangi O'zbekiston jamiyati taraqqiyotidagi barqarorlik tendensiyasi yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini o'ziga xos mezon va o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarida yangicha ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Mashhur ingliz jamiyatshunosi Entoni Giddensning ta'biri bilan aytganda, jamiyatning to'liq noaniqlik holatidan barqaror rivojlanishga o'tishi yoshlar siyosiy ongini transformatsiyalashish mexanizmlarini faollashtirishga yordam beradi va o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarining muvaffaqiyatli ishlashi uchun sharoit yaratadi [8;528]. Qolaversa, siyosiy-falsafiy va sotsiologik fanlarda shakllangan yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining asosiy tushunchalarini tahlil qilish ushbu ijtimoiy guruhning muhim xususiyatlarini: tarkibiy darajalari, elementlari, shakllari va boshqalarni ko'rib chiqishga imkon beradi. Boshqa yosh guruhlari bilan taqqoslaganda yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining o'ziga xosligi ushbu hodisaning tarkibiy elementlarining mazmuni, barqarorligi darajasi va rivojlanishi bilan belgilanadi. Yoshlar siyosiy ongi va madaniyati tarkibida ikkita asosiy daraja ajratiladi: oddiy, siyosiy haqiqatni bilishning empirik uslubiga mos keladigan va qadriyatlar, afsonalar, nazariyalar va boshqalarning siyosiy ideallarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan nazariy daraja [9;495]. Yoshlarning oddiy siyosiy ong va madaniyati darajasi ko'proq ijtimoiy-siyosiy voqelikning o'z-o'zidan aks etishining mahsuli bo'lib, nazariy darajani siyosiylashuvning ijtimoiy institutlari maqsadga muvofiq ravishda shakllantiradi. Demak, yoshlar siyosiy ongi va madaniyati tarkibida uning siyosiy ehtiyojlari, qiziqishlari va qadriyatlari o'zaro ta'sirining mahsuli bo'lgan faoliyat sohasi motividir, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy manfaatlar ularning siyosiy ongi va madaniyatining asosiy elementidir, deyishimiz ham mumkin. Bu esa albatta, ushbu ijtimoiy-demografik guruhning siyosiy dunyoga bo'lgan ehtiyojlari va talablarini aks ettiradi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, siyosiy bilimlar va siyosiy tuyg'ular ham yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining muhim elementlari hisoblanadi.

Ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, yoshlar siyosiy ongi va madaniyatini o'rganishda reproduktiv va riskologik yondashuvlardan foydalanish ushbu hodisani maxsus ijtimoiy-demografik guruh sifatida siyosiy-sotsiologik o'rganish konsepsiyasini ishlab chiqishga, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida uning muhim xususiyatlarini ta'kidlashga imkon beradi [10;29]. Ammo, biz Mertondan farqli ravishda yoshlarni jamiyatning bir qismi sifatida tavsiflaydigan ularning siyosiy ongi va madaniyati, boshqa yosh guruhlari ongidan farqli ravishda o'ziga xos shakllariga ega ekanligini ta'kidlaymiz. Yana shuni ham aytib o'tishimiz lozimki, ijtimoiy guruh sifatida yoshlarning mustaqilligi uning roli va funksiyalari bilan belgilanadi, deb aniq ayta olamiz. Bu o'rinda yoshlar quyidagi ijtimoiy funksiyalarni bajaradilar: birinchisi, tarixiy tajribaning uzluksizligini ta'minlash, ikkinchisi, uni innovatsion o'zgartirish va uchinchisi, keyingi avlodlarga yetkazish vazifasidir [11;107]. Yoshlar ijtimoiy-demografik guruh sifatida geterogendir. U turli

qatlamlardan yoshi, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu esa o‘z navbatida yoshlar ijtimoiy-siyosiy ongidagi farqlanishni ham yuzaga keltiradi, deb ko‘rsatadi, tadqiqotchi V.Yulov [12;496]. Bizningcha ham yoshlarning bir ijtimoiy bosqichdan ikkinchisiga o‘tishlari yoshlarning ijtimoiy pozitsiyasining marginalligini belgilaydi. Ushbu xususiyatlar yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining muhim xususiyatlarida aks etadi [12;476].

Yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining o‘ziga xos xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Yoshlarning ijtimoiy mavqeining o‘tish davri tabiati ularning siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashishi uchun asos bo‘lib, u siyosiy g‘oyalar va pozitsiyalarning beqarorligida, siyosiy voqealarni ko‘p talqin qilishida namoyon bo‘ladi. Yoshlar siyosiy ongi va madaniyati xavf va marginallik bilan bog‘liq bo‘lib, siyosiy haqiqat hodisalarini talqin qilishda o‘z g‘oyalariga haddan tashqari ishonib qarashlar va harakatlarga sodiqlikni aks ettiradi. Ijtimoiy-madaniy sharoitdagi farqlar yoshlar guruhlarida transagressivlikni shakllantiradi, bu shaxslarning ijtimoiy chegaralarini buzish, o‘zlarini hozirgi kunga yo‘naltirish uchun kelajakka qarash istagi bilan ifodalanadi [13;252].

Yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini muhim xususiyatlarini o‘rganish yangi O‘zbekistonda ijtimoiy hodisalarning shakllanishiga ijtimoiy-madaniy omillarning ta’siri hamda noaniqlik ta’siri ostida shakllangan yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatidagi ziddiyatlarni aniqlashga olib keladi. Yangi O‘zbekiston jamiyatining to‘liq noaniqlikdan ijtimoiy qarama-qarshiliklarni bosqichma-bosqich hal etishga o‘tishi barqarorlikka moyillikni shakllanishi bilan tavsiflanadi. Yangi O‘zbekistonda so‘ngi yillarda yangicha tartib-taomillar o‘rnatildi, ammo makro va mikro darajadagi noaniqlik potensiali saqlanib qolmoqda. Bu o‘zini o‘zi tashkillashtirishdagi tartibsizlikda va ijtimoiy jarayonlarning to‘liqsizligida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu omillar zamonaviy o‘zbek jamiyatini o‘zgartirishning hozirgi bosqichida yoshlar siyosiy ongi va madaniyatida ziddiyatlarni shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Yangi O‘zbekiston jamiyatidagi beqarorlik va ijtimoiy-madaniy inqiroz hali yoshlar siyosiy ongi va madaniyatida bartaraf etilmagan sharoitda uni tartibga solishning deformatsiyalangan qiymat-normativ institutsional mexanizmlari va o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarini faollashtirish o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘ladi. Bizning nazarimizda, yoshlarning yangi xavfli sharoitlarga moslashishini shakllantirish va aksariyat yoshlarning an’anaviy konformistik modelni qabul qilish, e’lon qilingan siyosiy yo‘nalishga yo‘naltirish orqali sodir bo‘ladi. Ba’zi olimlarning fikricha, ijtimoiy-siyosiy sohadagi yoshlar guruhlari tomonidan tavakkalchilikni ratsionalizatsiya qilishning turli usullari ijtimoiy-siyosiy ongning ichki qarama-qarshiligini belgilaydi [14;226-241]. Haqiqatdan ham ijtimoiy-siyosiy hayotni o‘zini o‘zi boshqarishning an’anaviy usullari zamonaviy modellar bilan o‘zaro aloqada bo‘lganda hamda yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining qarama-qarshi tomonini shakllantirishda yoshlarning bilimlari muhim rol o‘ynaydi.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti asoslarini transformatsiyalashishi sharoitida yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini ob’ektiv va sub’ektiv xavf omillari ko‘pchilik soha olimlarining nazarida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy ongiga ta’sirini kuchaytiradi [15;116]. Shunday qilib, yoshlar siyosiy ongi va madaniyatidagi yana bir qarama-qarshilik uchun shartlar paydo bo‘ladi hamda bu ob’ektiv faoliyatga asoslangan xavf shakllari sifatida o‘zini namoyon etadi. Tadqiqotlar jarayonida shu narsaga amin bo‘ldikki, yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini ijtimoiy-madaniy mexanizmlarini aniqlash, ularni siyosiy ongi va madaniyatidagi transformatsiyalashishni kuzatish imkonini yaratadi. Ijtimoiy-madaniy mexanizmlar – bu yoshlarga siyosiy makonda harakat qilish va siyosiy munosabatlarda ishtirok etish imkoniyatini beradigan, siyosiy me’yorlarni, siyosiy qadriyatlarni tan olish va qabul qilish protseduralarining tizimidir. Ushbu mexanizmlarning asosini qadriyatlarga asoslangan regulyatorlar tashkil etadi. Bu kabi mexanizmlar siyosiy qadriyatlarni va ideallarni tartibga soladi, ularning yordami bilan yoshlarning siyosiy yo‘nalishlari va siyosiy xatti-harakatlarini bashorat qilinadigan yo‘nalishda boshqaradi. Mazkur mexanizmlar tarkibida xatti-harakat qoidalari va yoshlarni yo‘naltirish usullarini ishlab chiqishda ishtirok etadigan siyosiy g‘oyalar va qadriyatlar me’yoriy-amaliy mexanizmlarni ishlab chiqadigan hamda yoshlarning ushbu yo‘nalishlari ustidan nazorat qilish uchun javobgar bo‘lgan tartibga solishning nazorat va tiklanish komponentlarini ishlab chiqadigan qiymatga yo‘naltirilgan mexanizmlar ajratib ko‘rsatiladi. Rivojlanishning hozirgi bosqichida yangi O‘zbekiston jamiyatining barqarorlik tendensiyasining shakllanishi zamonaviy o‘zbek yoshlari uchun yangi maqsadlar va ko‘rsatmalarga ega bo‘lgan qadriyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Ushbu jarayonlarning natijasi yoshlar siyosiy ongi va madaniyatida ijtimoiy konservativ qadriyatlarni,

siyosiy hokimiyat mohiyati to‘g‘risidagi barqaror g‘oyalarni shakllantirishdir. Shu bilan birga, yoshlar siyosiy ongi va madaniyatida salbiy tendensiyalar saqlanib qolmoqda, ular orasida davlat va jamoat tuzilmalariga ishonchsizlik, ekstremistik yo‘nalishlar va mozaikali siyosiy madaniyatni shakllanishi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashish mexanizmlaridan farqli o‘laroq, o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari ham zarur. Parsons nazarida ular muhim, kerakli va maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida individual-guruh g‘oyalariga asoslanadi [16;880]. Ushbu qarashlar ma’lum bir ijtimoiy guruhning siyosiy ongi va madaniyatini o‘zini o‘zi boshqarish shakllari va usullarining asosiy manbai hisoblanadi. O‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari foydasiga tanlov yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining motivatsion sohasida yuzaga keladi hamda siyosiy sohadagi ehtiyojlar, manfaatlar, qadriyatlar, munosabat, motivlar va ideallarning yo‘nalishi bilan belgilanadi.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti asoslarini transformatsiyalashishi jarayoni yoshlar siyosiy ongi va madaniyatida o‘zgaruvchanlik, individualizatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zini o‘zi boshqarishning maxsus turini keltirib chiqaradi. O‘zini o‘zi boshqarish jarayoni ehtiyojlar, manfaatlar va qadriyatlarning ma’nosini qayta taqsimlaydi, shu bilan siyosiy munosabatlar sub’ekti, uning o‘zgaruvchan haqiqatga moslashishiga yordam beradigan yangi modellarni izlaydi. Siyosiy ong va madaniyat modellarining beqarorligi va dolzarbligi transformatsiya mexanizmini amalga oshirishga hissa qo‘shib, o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarining intuitivligini belgilaydi.

O‘tkazilgan tadqiqotlarning tahlillari ko‘rsatganidek, transformativ g‘oyalar o‘zini o‘zi boshqarishning ikkita asosiy usulini amalga oshiradi: an’anaviy, bu paternalizm va avtoritarizmni aks ettiradi hamda individualistik liberal qadriyatlarga asoslangan zamonaviy boshqaruv usulini ham o‘z ichiga oladi. Barqarorlik tendensiyasining paydo bo‘lishining hozirgi bosqichida kollektivistik o‘zini o‘zi boshqarish usullari buziladi, yoshlar ijtimoiy-siyosiy ongida individualizm va tavakkalchilik mexanizmlari faollashadi [17;17]. Bugungi zamonaviy o‘zbek yoshlari siyosiy ongi va madaniyatidagi avtoritar va demokratik munosabatlarning tahlili uning nomuvofiqligidan dalolat beradi. Ushbu qarama-qarshilikning oqibatlaridan biri zamonaviy o‘zbek yoshlari siyosiy ongi va madaniyatida o‘zini o‘zi boshqarish turiga taqlidning paydo bo‘lishidir. Yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini ijtimoiy-madaniy mexanizmlarini o‘rganish siyosiy partiyalarni yoshlarni siyosiy institutlar va yoshlar tashkilotlarini o‘zini o‘zi tashkil etish shakllari sifatida ko‘rib chiqishga yordam beradi.

Jamiyatdagi siyosiy partiyalar kabi siyosiy institutlar ham yoshlar siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashish jarayonida muhim rol o‘ynaydi, chunki ular bu jarayonni qadriyatga yo‘naltirilgan mexanizmlar orqali tartibga soladilar. Partiya hayotiga qo‘shilish orqali yoshlar siyosiy sotsializatsiya ob’ekti va sub’ektlariga aylanishadi, natijada siyosiy ong va madaniyatni transformatsiyalashishiga imkon yaratishadi.

Yangi O‘zbekiston jamiyatining tubdan o‘zgarishi sharoitida institutsional mexanizmlarning noto‘g‘ri ishlashi tufayli siyosiy partiyalarning yoshlarga bo‘lgan qiziqishi, asosan, saylov kampaniyalari davrida vaziyatli xususiyat kasb etadi. Yangi O‘zbekiston jamiyatini o‘zgartirishning hozirgi bosqichida siyosiy institutlar faoliyatida yoshlarga nisbatan aniqlik tendensiyasi kuzatiladi. Siyosiy institutlar faoliyatini jonlantirish sharoitida yoshlar siyosiy partiyalar faoliyatiga ishonchsiz bo‘lib qoladilar va siyosiy partiyalar tomonidan yoshlarning o‘ziga nisbatan ular asosan instrumental yondashuvni qo‘llaydilar. Shu sababli, siyosiy partiyalarning ushbu sharoitda yoshlar siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashishiga real ta’sirini samarali deb hisoblash mumkin emas. G‘arb olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ma’lumotlariga ko‘ra, aksariyat yoshlar tashkilotlarining davlat idoralari va siyosiy partiyalardan mustaqilligi tendensiyasining paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi [18;94]

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning tub siyosiy manfaatlarini aks ettiruvchi yagona avlod mafkurasini shakllantirishning institutsional shartlari hali shakllanmagan. Mutloq shakllangan milliy mafkuraning yo‘qligi sababli, yoshlar tomonidan birdamlikka taqlid mavjud, e’lon qilingan siyosiy loyihalar yoshlar tomonidan o‘zlarining guruh manfaatlari prizmasi orqali amalga oshirilmaydi. Shunday qilib, yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini institutsionalizatsiya qilish jarayoni o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari bilan to‘qnash keladi. Siyosiy yo‘nalishdagi yoshlar tashkilotlari o‘zlarining guruhiy siyosiy manfaatlarini, siyosiy dasturlarini amalga oshirishga va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni qayta tiklashga qaratilgan hamda yoshlarni birlashtirishning o‘ziga xos usullarini aks ettiradi. Yoshlar tashkilotlari

faoliyatida qatnashish siyosiy ongda mafkuraviy g‘oyalar, yo‘nalishlar va manfaatlar shaklida o‘rnatiladigan identifikatsiyaning g‘oyaviy tomonini shakllantirishni nazarda tutadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jamiyatni transformatsiyashishining hozirgi bosqichida yoshlarning siyosiy tashkilotlarida ishtirok etishga qiziqishi mavjud. Ushbu tashkilotlar faoliyatiga bugungi kunda davlatning qiziqishi sezilarli darajada oshdi. So‘ngi yillarda olib borilgan tadqiqot ma’lumotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki:

– birinchidan, amaldagi hukumatni va u olib borayotgan islohotlarni qo‘llab-quvvatlovchi hamda milliy-vatanparvarlik harakatlari yoshlar siyosiy ongi va madaniyatini o‘zini o‘zi boshqarish jarayoniga eng katta ta’sir ko‘rsatmoqda;

– ikkinchidan, yangi O‘zbekiston jamiyatining barqaror rivojlanishiga o‘tish sharoitida yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining mafkuraviy yo‘nalishidagi aniqlik darajasini oshirish tendensiyasi kuzatilmoqda;

– uchinchidan, jamiyatda o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarining paydo bo‘lishi yoshlarning siyosiylashuvida yetakchi rol o‘ynamoqda.

Umuman olganda, yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollarini ilmiy asosda o‘rganish yuzasidan quyidagi taklif va mulohazalarni taqdim etish mumkin:

– avvalombor, tahlillar natijasida shuni aytish mumkinki, ratsionalizatsiya mexanizmlari, ratsionallik turlarini aniqlash, jamiyat taraqqiyotida noaniqlikdan barqarorlikka o‘tishda yoshlarning siyosiy haqiqati haqidagi bilimlarni sotsial-madaniy sharoitlariga moslashtirish masalalarini chuqur o‘rganish lozim;

– qolaversa, yoshlar siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri bo‘lgan siyosiy tashkilotlarning ta’sir mexanizmlarini chuqur va muntazam o‘rganib borishni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев, Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Тошкент; «Ўзбекистон» НМИУ. 2020. – 186 б. (Mirziyoyev, Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent; "Uzbekiston" NMIU. 2020. – 186 b.)

2. Зубок, Ю. А. Социальная интеграция молодежи в условиях нестабильного общества. М. : Социум, 1998. -142 с. (Zubok, Yu. A. Social integration of youth in an unstable society. Moscow : Socium, 1998. -142 p.)

3. Ковалева, А. И., Луков, В. А. Социология молодежи: теоретические вопросы. М. : Социум, 1999. - 351 с. (Kovaleva, A. I., Lukov, V. A. Sociology of youth: theoretical issues. Moscow: Socium, 1999. - 351 p.)

4. Сорокин О.В. Формирование политического сознания молодежи в условиях трансформации современного российского общества (социокультурный аспект). М. : 2008. - 34 с. (Sorokin O.V. Formation of political consciousness of youth in the conditions of transformation of modern Russian society (socio-cultural aspect). Moscow : 2008. - 34 p.)

5. Штомпка, П. Социология. Анализ современного общества. М. : Логос, 2005.-664 с. (Shtompka, P. Sociology. Analysis of modern society. Moscow : Logos, 2005.-664 p.)

6. Erikson, R. S., Wright, G. C., Mclver, J. P. Statehouse demokrasy: Public opinion and policy in the American States. New York: Cabridge University Press, 1993. - 106 p.

7. Бандура, А. Теория социального научения. СПб. : Евразия, 2000. - 320 с. (Bandura, A. Theory of social learning. St. Petersburg: Eurasia, 2000. - 320 p.)

8. Гидденс, Э. Устроение общества: очерк теории структурации. М. : Академический Проект, 2005. — 528 с. (Giddens, E. The organization of society: an essay on the theory of structuration. M. : Academic Project, 2005. — 528 p.)

9. Политическая социология. М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2002. - 495 с. (Political sociology. Moscow: UNITY-DANA, 2002. - 495 p.)

10. Мертон, Р. К. Социальная теория и социальная структура. Социальная структура и аномия // Социс. 1992. - № 2 - 4. 29 с. (Merton, R. K. Social theory and social structure. Social structure and anomie // Socis. 1992. - № 2 - 4. 29 S.)

11. Тощенко, Ж. Т. Фантомы общественного сознания и поведения // Социология. М. : Академический проект, 2005. - № 1. - С. 92 - 107. (Toshchenko, J. T. Phantoms of public consciousness and behavior // Sociology. M. : Academic Project, 2005. - No. 1. - pp. 92 - 107.)

12. Юлов, В. Ф. Мышление в контексте сознания. М. : Академический Проект, 2005.-496 с. (Yulov, V. F. Thinking in the context of consciousness. M. : Academic Project, 2005.-496 p.)

13. Проблемы политических ценностей в условиях трансформации режима: научный ежегодник Томского МИОН-2003 / Под ред. А.И. Щербинина. -Томск : Том. ун-т, 2004. 252 с. (Problems of political values in the conditions of regime transformation: Scientific yearbook of Tomsk MION-2003 / Edited by A.I. Shcherbinin. -Tomsk : Tom. un-t, 2004. 252 p.)

14. Павлова, Е. Д. Проблема информационного воздействия на сознание в постиндустриальном обществе // Личность, культура, общество. М., 2007. -Т. IX, вып. 1 (34). - С. 226 - 241. (Pavlova, E. D. The problem of informational influence on consciousness in post-industrial society // Personality, culture, society. M., 2007. -Vol. IX, issue 1 (34). - pp. 226 - 241.)

15. Чупров, В.И., Зубок, Ю. А. Молодежь в общественном воспроизводстве: проблемы и перспективы. М. : РИЦ ИСПИ РАН, 2000. - 116 с. (Chuprov, V.I., Zubok, Yu. A. Youth in social reproduction: problems and prospects. Moscow : RIC ISPI RAS, 2000. - 116 p.)

16. Парсонс, Т. О структуре социального действия. — М. : Академический. Проект, 2000. 880 с. (Parsons, T. On the structure of social action. — M. : Academic. Project, 2000. 880 p.)

17. Щербо, И. А. Процесс социализации: опыт теоретико-методологического ис-следования : автореф. . канд. соц. наук : 22.00.04 / И. А. Щербо. СПб, 2006.- 17 с. (Shcherbo, I. A. The process of socialization: the experience of theoretical and methodological research : abstract. . Candidate of Social Sciences : 22.00.04 / I. A. Shcherbo. St. Petersburg, 2006.- 17 p.)

18. Игнатов, В. Г., Нифанов, А. Н., Беспаленко, П. Н. Региональная молодежная политика: проблемы и опыт становления. Ростов-н/Д, 1999. - С. 94. (Ignatov, V. G., Nifanov, A. N., Bespalenko, P. N. Regional youth policy: problems and experience of formation. Rostov-n/A, 1999. - p. 94.)

19. Ergashev I., Safarov M. The role of constructive ideas in the formation social-political consciousness of youth and social progression in Uzbekistan.// International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 28, No. 14, (2019)

20. Ergashev I. Uzbekiston's national ideology in the context of democratic society development. // "East European Science Journal". Poland. 2019. 3 (43)

21. Ergashev I. Civil society and youth. // "Science and Education" Scientific Journal February 2021 / Volume 2 Issue 2.